

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

Navoiy davlat pedagogika instituti

«Umumiy tarix» kafedrası

Bitiruv malakaviy ishi

**Mavzu: Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda
noan'anaviy dars usulidan foydalanish.**

Bajardi: Tarix fakulteti

4 – kurs “A” guruhi talabasi

Ibragimov Muzrobjon Furqatovich

Ilmiy rahbar: dots. R. N. Tolibov

Navoiy - 2013

**Mavzu: Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda
noan'anaviy dars usulidan foydalanish.**

I. Kirish

II. Asosiy qism

**I. Bob. Avstraliya va Okeaniyaning geografik o'rni, an'anaviy
xo'jaligi, moddiy va manaviy madaniyati.**

1. Avstraliya aholisining etnik tarixi, lingaistik va antropologik klassifikatsiyasi.
2. Avstraliyaliklarning an'anaviy xo'jaligi va turmush tarzi.
3. Avstraliyaliklarning diniy tasavvurlari.

**II. Bob. Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda
noan'anaviy dars usulidan foydalanish.**

1. Okeaniya xalqlarining aholisi, xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi va madaniyati.
2. Melaneziya xalqlarining aholisi, an'anaviy xo'jaligi turmush tarzi va diniy tasavvurlari.
3. Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish.

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'quvchi faoliyatida sodir bo'layotan o'zgarishlarni ongli ravishda o'rganib borish o'ta muhim hisoblanadi. Shunga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida umummadaniy va axloqiy fazilatlar shakllantiriladi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchilarninshg mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, ilmiy dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy va ma'naviy borliqni his eta olishiga, milliy an`ana va urf – odatlarni o'zida singdirishga, ularni hurmat qilishga o'rgatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli asarida «Ma'rifat va bilimdonlik jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch»,¹-deb ta'kidlagan edi.

Ana shu ma'rifat o'quvchilarda avvalambor ta'lim tizimida, jahon tarixi darslarini o'zlashtirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, etnografiya ya'ni jahon xalqlarining etnik tarixini o'rganishda yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda bu cheksiz qudratga ega. Albatta o'qitishning usullari va metodlari rang - barang. Shu nuqtai nazarda qaraganda tanlagan mavzumiz dolzab sanalib, yoshlarimizga Avstraliya va Okeaniya xalqlarining etnik tarixini ko'rgazmali vositalar asosida xolisona o'rganishni bosh vazifa qilib oldik.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Noa`naviy o'qitish uslubiyoti o'quvchi aqliy faoliyati taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mantiqiy fikrlash doirasini yanada kengaytiradi. Ularda moddiy borliq, shaxslararo munosabat hamda ularning mexanizmlarini har tomonlama anglab olishga asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. Narsa va hodisalarning ichki murakkab bog'lanishlarini, qonuniyatlarini mustaqil ravishda tushunish uchun imkoniyat tug'diradi. Ularning mulohaza yuritish doirasini kengaytiradi, o'quv motivlarini yuzaga

¹ Karimov I A «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» T. «Sharq», 1998, 14-bet.

keltiradi. Voqealikni bilishga faollik uyg'otadi. O'zini - o'zi boshqarishga puxta zamin hozirlaydi.

Umumta'lim maktablarining tarix darsliklarida Avstraliya va Okeaniya xalqlari tarixini o'rganishga qaratilgan soatning hajmi ancha kam. Ko'pincha o'qituvchi bu mavzuni mustaqil o'qish uchun topshiriqlar berish bilan kifoyalanadi. Lekin bu to'g'ri emas, binobarin bugungi Avstraliya va Okeaniya xalqlari jahon miqiyosida rivojlanib kelayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Bunga bu xalqlarning tarixi, qadriyatlari, madaniyati guvoh.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Avstraliya beshinchi qit'a sifatida evropaliklar tomonidan nisbatan kech ochilgan bo'lib, uning yer maydoni - 7,686.010 km. kv. ni tashkil etadi. Eng kichik qit'aning parallel bo'yicha uzunligi -4100 km, meridian bo'yicha esa – 3200 kilometr ga yaqindir.

Avstraliklarning tub aholisi evropaliklar kela boshlagan 200 yildan ortiqroq vaqt ichida taxminan 300 mingdan 40 ming kishigacha tushib qolgan. Avstraliya aboregenlari haqidagi demografik ma'lumotlar nisbiy olinadi. Sababi XX asarning o'rtalaridagi qadar aholi ruhiyati to'liq o'tkazilmagan, boz ustiga ibtidoiy urug'chilik darajasidagi qabilalar bilan aloqalar ham deyarli bo'lmagan.

Shimoliy Amerikadagi mulklar qo'ldan ketgandan so'ng Angliya o'z jinoyatlarini G'arbiy Afrikaga jo'natishga urinib ko'radi, bu tadbir ham muvaffaqiyatsiz tugaganidan so'ng Yangi Janubiy Uelsda (Avstraliya) koloniya tashkil qilishga harakat boshlanadi. Dastlabki ingliz kemalari 1788 yili Sidneyga 1000ga yaqin kishi keltirib, ulardan 700 tasi surgun qilinganlar, 200 tasi ayollar edi. Deportatsiya haqidagi qonun 1868 yili bekor qilingunga qadar 160 ming jinoyatchi Avstraliyaga surgun qilingan bo'lsa, ko'chib kelganlar soni 1 millionga yaqinlashib qoladi. Bugungi kun nuqtai nazaridan qarasak, surgun qilinganlarning katta qismini gunohkor deb atash ham qiyin.

Avstraliyada mahalliy aborigenlarni ro'yxatga olishni taqiqlovchi qonun faqat 1907 yili bekor qilinadi. Natijada 1961 yilgi ma'lumotlarga ko'ra 36.137 ta, 1964 yili 42.675 ta tub avstraliyalik aholi hisobga olingan.

Okeaniyaga kelsak, uning deyarli barcha orollarida odamlar yashaydi. Taxminiy hisob – kitoblar bo'yicha yevropaliklar kelgunga qadar Okeaniyada 3,5 mln. aholi bo'lib, uning 2,2 mln.i Melaneziyada, 1,1 millioni Polineziyada va 200 mingi Mikroneziyada istiqomat qilgan. Mustamlakachilik davri Okeaniya orollari aholisining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qulchilik, o'tochar qurollar, spirtli ichimliklar, turli yuqumli kasalliklar, axloqiy buzuvchilik, ularning barchasining tarqalishi aholi sonining keskin kamayishiga olib keldi.

Natijada 1890 yilgi Polineziyada 1 million 100 mingdan 180 ming, Mikroneziyada 200 mingdan 83 ming aholi qolgan xolos. Demak, Polineziya aholisi 6 marta, Mikroneziya orollariniki esa 2,5 martaga qisqargan. XX asr boshlaridan Okeaniya aholisida depopulyatsiya jarayoni to'xtab, o'sish boshlandi.

Bugunda Avstraliya hamdo'stligi: federativ, ko'ppartiyali, parlament, oiliy monarxiya boshqaruvidagi davlatdir. Ayni paytda Avstraliya dunyoning taraqqiy etgan o'n davlati qatorida bo'lib, uni industrial agrar mamlakat deb atash to'g'ri bo'ladi. Avstraliya yalpi maxsulotining $\frac{3}{4}$ qismini sanoat ta'minlaydi. Zamonaviy Avstraliyaning energetika resurslari toshko'mir asosida yaratilgan. Mamlakat oltin qazib olishda 3, ko'mir qazib olishda 4-5 o'rinni egallaydi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Avstraliya yuksak rivojlangan mashinasozlik sanoatini yaratgan. Qishloq xo'jalik mashinasozligi, avtomobil sanoati, lokomotiv va vagonlar qurilishi, kemasozlik, elektronika, elektrotexnika sohalari ayniqsa, yuksak taraqqiy etmoqda.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bugunda bizning yosh davlatimiz barcha dunyo mamlakatlari bilan hamkorlik yo'lini tutgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "biz butun ma'rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va faravon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz"¹. O'zbekistonning Avstraliya qit'asi xalqlari bilan o'rnatgan aloqalari aynan shunday munosabatda rivojlanmoqda.

¹ I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat– engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008, 112-114 betlar

Biz bitiruv malakaviy ishimizda Avstraliya va Okeaniya xalqlarining asosan etnik tarixi, etnografiyasini o`rganishga harakat qildik. Shu vazifa bilan bog`liq dars jarayonida mazkur xalqlarning aholisi, xo`jaligi, ijtimoiy tuzumi va madaniyatini ko`rgazmali vositalar metodi asosida o`rganishga harakat qildik. Shuningdek, ilg'or o'qituvchilar tajribasiga tayanib dars tashkil etish, mavjud imkoniyatlardan foydalanish tarix ta'lim amaliy uslubining mavjud imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishga va shu bilan maktabda tarix o'qitishning samaradorligi va sifatini yanada yaxshilashga qaratilgan xulosalar berishga harakat qildik.

Tadqiqotning metodi va ilmiy - nazariy asoslari. Bitiruv malakaviy ishini yozishda dialektik metodga tayandik. Ayniqsa, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tariximizni bugungi kun nuqtai nazardan o`rganish, yaratish orqali tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirish, anan`aviy qadriyatlar tizimini tadqiq va targ`ib etish borasidagi konseptual nazariy mulohazalari Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy - nazariy va amaliy ahamiyati.. Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o`rganish, tarixiy haqiqatni oydinlashtirishga, tarixiy voqealarning sabab va maqsadlari turlicha baholangan yoki ziddiyatli qarashlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy ishning nazariy xulosalari va natijalaridan oliy o`quv yurtlarida Jahon tarixi fani bo`yicha maxsus kurslar o`tishda, darslik, o`quv qo`llanmalari va dasturlar tuzishda foydalanish, ochiq darslar tashkil etish mumkinligi, BMI amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning manbalari. BMI yozishda o`rganilgan asarlar va matbuot materiallari natijalari asos qilib olindi. Shuningdek, mustaqillik davrida mazkur mavzuda uyushtirilgan davra suhbatlari materiallari, chop etilgan ilmiy maqolalar, davriy matbuot materiallardan ham keng foydalanildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv ishi kirish, asosiy qism, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I. Bob. Avstraliya va Okeaniyaning geografik o'rnini, ananaviy xo'jaligi, moddiy va manaviy madaniyati

1. Avstraliya aholisining etnik tarixi, lingvistik va antropologik klassifikatsiyasi.

Avstraliya va Okeaniya odam paydo bo'lgan hamda shakllangan, ya'ni antropogenez hududga kirmaydi. Avstraliyaga dastlabki aholi shimolda Janubiy – Sharqiy Osiyodan yuqori paleolitda, bundan 40 ming yil avval kela boshlagani fanda tasdiqlangan. Avstraliyaning sharqidagi Mango ko'li yoqasidan topilgan makon va tosh qurollari 32 ming yil bilan belgilangan. Shu joydan 25 ming yil avval yashagan odam qoldiqlari ham chiqqan. Ma'lumotlarga asosanib Avstraliyaga ko'chib kelishlar birdaniga ro'y bermasdan, dastlabki emigrantlar to'lqini ortidan boshqa guruhlar yo'l olgani aniqlangan. Olimlarning fikricha, Tasmaniyaga aholi Avstraliyadan bundan taxminan 22 ming yil avval o'tadi.

Dastlabki aholi guruhlarining asosiy mashg'ulotlari ovchilik va termachilik bo'lgan. Ularning mehnat qurollari esa yuqori paleolit darajasida edi.

Evropaliklar Tasmaniyaliklar bilan dastlab to'qnashganlarida, ulardagi tosh davri madaniyati, avstraliyaliklarning 7 ming yil avval yashagan makonlaridagi izlariga o'xshash bo'lgan. Demak, qit'ada keyingi yetti ming yilda ishlab chiqarish vositalari deyarlik o'zgarmagan. Agar dunyoning boshqa hududlarida odamlarning texnika taraqqiyoti doiradagi yutuqlarini eslasak, avstraliyaliklarning so'nggi paleolit darajasida qolib ketganligini tushunish mumkin, albatta. Lekin Avstraliyada bu davrda insonning qadri past bo'lib, arzimagan qilmish uchun 100 qamchi urish olddiy hol hisoblangan. Sud bitta qo'y uchun avstraliyalik aborigenni otib o'ldirishga hukm qilgan, bunday gunoh Angliyaning o'zida ham xuddi shunday jazolangan. Jinoyatchilarning ko'pchiligi 7-14 yil qamoqqa hukm etilgan bo'lib, Britaniya hukumati qarori bilan ozodlikka chiqqandan keyin 2 morganidan yer bilan ta'minlangan. XIX asrning boshlaridan ilgari Sileziya va Ispaniyadan keltirilgan ingichka tolali jun, Yangi Janubiy Uels koloniyasidan keltiriladigan jun bilan almashtiriladi.

Agar 1807 yili Angliyada 245 funt jun jo'natilgan bo'lsa, 1821 yili bu raqam 175.400 funtga, 1836 yilda esa astronomik raqam 3.693.241 funtga yetadi.¹

Natijada qo'ylar uchun yaylovlarga talab keskin o'sib, bu tadbir tub aholi avstraliyaliklar yerlari hisobiga amalga oshiriladi. Kengurular aborijenlarning yagona go'sht manbai sifatida yevropaliklar tomonidan qirg'in qilinishi esa – «junli kengurular» - qo'ylarni ovlashga majbur etadi. Qo'y suruvlari egalari esa o'g'rini aniqlash mumkinligidan birinchi uchragan avstraliyaliklarni o'ldirishgan. Natijada tub aholi ham uzoq masofada yakka yashaydigan fermerlarni o'ldira boshlaydilar. Jazo bo'linmalari tashkil etilib ularning «qahramonliklari» o'ldirilgan avstraliyalik: erkak, ayol, bolalarning quloqlarini o'lja sifatida namoyish qilardilar. Mustamlakachilarning mahalliy aholiga munosabatlarini Tasmaniya oroli misolida ko'rish mumkin. Tasmaniyada 1804 yili surgundagilar uchun dastlabki koloniya tashkil etilgan paytda 2500 tub aholi vakillari yashagan. O'ttiz yil o'tmay 1832 yili oxirgi 200 tasmaniyalik asirga olinib, Basso bo'g'ozidagi orollarning biriga ko'chirilib, 1876 yili ularning so'nggi vakillari – Truganini vafot etadi.²

Avstraliyaga tashqi madaniyat ta'sirida bo'lgani shubhasiz. Olimlar bundan 7 ming yil avval boshlangan tosh qurollaridagi o'zgarishlar tashqi ta'sir ostida bo'lganini taxmin qiladilar. Ayni paytda asosiy ishlab chiqarish vositalari o'zgarishsiz qolgani ham ma'lum. Xususan shimolda tarqalgan o'q-yoy (kamon)dan bolalar o'yinchohi sifatida foydalanilgan. Qit'aga indoneziyaliklarning kelib turishi an'anaviy mehnat qurollari va mehnat munosabatlariga deyarlik ta'sir qilmagan. Nima sababdan chetki ta'sir avstraliyaliklarni o'zlashtirish xo'jaligidan ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tishiga yordam ko'rsatmagan? Avstraliyalik olimlardan biri bu haqda qo'yidagi haziltomus gaplarni aytgan. «sababi tikanli o'tni o'stirish va

¹ Salimov T.U. Avstraliya va Okeaniya xalqlari. (O'quv-uslubiy qo'llanma). T. O'z. MU. 2003. 21- bet

² Народы Австралии и Океании. Под ред. С.А. Токарева. М.Изд. Академии наук. 1996.стр- 42.

kenguruni sog'ish mumkin emas». Ushbu so'zlar haqiqat bo'lsada mavjud vaziyatni to'liq ifodalamaydi.

Etnografik ma'lumotlarga qarganda avstraliyaliklar yovvoyi it **dingoni** urchitmasdan yoshlarini xonakilashtirgan. Avstraliyada tikanli o'tdan tashqari, iste'mol qilish mumkin bo'lgan yer ildizli **yams**, shimoliy daryolarda o'sadigan yovvoyi **sholi** ham mavjud edi. Odamlar sholidan qisman oziq sifatida foydalansada, uning asosiy qismini qushlar yeb ketgan. Lekin avstraliyaliklar Shimoliy Amerikaliklar kabi sholini terib, tozalab, saqlashni bilmaganlar. Ishlab chiqarish faoliyatining tug'ilishi sifatida esa ayollar tomonidan yamsni tomirining yuqori qismini qaytadan ekilishni ko'rsatish mumkin. Qirg'oqda yashovchi aholi daryo va soylardan daraxt tanalarini ushlab undagi **teredo-qurtlarni** kovlab olib yeyishgan. Ba'zida daraxt tanasini ataylabdan suvga tashlab teredo zahirasini tayyorlashgan. Oziqlarni g'amlash, tayyorlash ham juda kam qo'llanilib o'ta sodda ko'rinishda bo'lgan. Masalan Markaziy Avstraliyaliklar cho'l - dashtlarda o'sadigan yovvoyi **olxo'rilarini** danagidan tozalab quyoshda quritishgan.

Avstraliyaning sharqiy qismida (Yangi Janubiy Uels) ba'zi qabilalarda **bogong** kapalaklarini dudlab iste'mol qilishadi. Bunya-bunya daraxtining pishmagan yong'oqlarini xomcha, pishgan **yong'oqlarini** esa tuyib – yanchib undan non tayyorlashgan, bunday nonni bir necha oy saqlash mumkin bo'lgan. Burravang palmasi yong'oqlari maxsus o'ralarda saqlangan. Ba'zida **toshbaqa va qush tuxumlarini**, Markaziy Avstraliyada **kenguru** go'shti ikki kun quritilib, so'ng saqlangan.

Aborigenlarning oziqlar ishlab chiqarishga o'tmagani, ularning ongsizligidan emas, albatta. Aksincha avstraliyaliklarning mahalliy sharoitga mos holda oziqlarni izlab topish va tayyorlashi ularning zukkoligidan dalolat beradi. Lekin ushbu faoliyatlar faqat terib – termachilik va ovchilik doirasida ro'y bergan xolos.

Hisob – kitoblarga qaraganda avstraliyaliklar 1788 yili 300 ming kishi bo'lib, o'rtacha 26 kv.km.ga 1 kishidan to'g'ri kelgan Cho'l – dashtlarda 1

kishi 90 kv.km.ga bo'lsa, Grut Aylend orolining qulay sharoitida 1 km.kv.ga 8 kishidan yashaganlar. Qiyoslash uchun oddiy dehqonchilik bilan mashg'ul Papua – Yangi Gvineya aholisi avstraliyaliklarga qaraganda 90 baravar zichroq yashaganligini ko'rsatish mumkin.¹ Ma'lum cheklangan hududda yashovchi aholi qo'shnilari bilan juda kam uchrashgan. Amalda aborigen o'zi ov qiladigan viloyatni deyarlik tashlab ketmagan. Natijada ma'lum cheklangan sondagi aholi gaplashadigan til – kommunalektlar shakllangan, yevropaliklar kela boshlagan 1788 yilga qadar aborigenlar 500 til – kommunalektda so'zlashib ularning har biri o'rtacha 500 – 600 kishini birlashtirgan. Misol tariqasida sharqdan – g'arbga qarab joylashgan qabilalar 1-si -A, 2-si - V, 3 -si -S, 4-si-D kommunalektda gaplashsa 1- guruhdagilar 2-dagilarni tushunsa, 3 va 4 -guruhlar tilini bilishmagan. O'z navbatida ikkinchisi, birinchisi va uchinchi tushunsa, 3 chisi o'z navbatida 2- va 4-ni tushungan va birinchisining tilini tushunmagan va h.k. Ko'pincha bir kishi o'z tilidan tashqari yana uchta va undan ko'proq tilni – «kommunalekt»ni bilgan.

XX asrning boshlarida V.Shmid va tilshunos E. Kepellarning sa'y – harakatlari bilan Avstraliya tub aholisining tillarini o'rganishga kirishilgan. Avstraliya tillari «shimoliy» va «janubiy» guruhlariga bo'linib, janub qabilalari tillari bir-biriga yaqinligi bilan ajralib turadi. Janub tillaridagi yaqinlik faqat lug'ati bilan emas, grammatik jihatdan ham kuzatiladi.

«Shimoliy» tillarni shartli ravishdagina guruh deb atash mumkin xolos. Ularda, so'zlar oxiridagi unli harflarni hisobga olmaganda, o'zga yaqinlikning o'zi topilmaydi. Avstraliya tillarining fonetikasi sodda bo'lib, unda tomoq orqali yoki hushtaksimon ovoz chiqaradigan so'zlar uchramaydi. Grammatika jihatidan avstraliya tillari **agglyutinativ** tipga oiddir. Ular o'z xususiyatlari bilan turkiy yoki boshqa oltoy tillarini, yana ham ko'proq Janubiy Hindistondagi draviy tillari tuzilishiga o'xshaydi. Bunga yorqin misol tariqasida aranda qabilalari tilini ko'rsatish mumkin.

¹ Пучков П. И. Население Океании. М. «Наука». 1967. стр-49.

Oddiy tovushli (ovozli) nutqqa qo'shimcha avstraliyaliklarning nisbatan murakkab imo – ishoralari, qo'l harakatlari bo'lib, ular gunglarning o'zaro «gurungini» eslatadi. Imo – ishoralar, qo'l harakatlari, so'zlashish uchun masofa uzoq bo'lganida yoki o'zaro tillari yaqin bo'lmagan turli qabilalar vakillari uchrashganida ishlatiladi. Ba'zida ma'lum muddatga gaplashishning taqiqlanishi bevalar yoki bag'ishlov (initsiatsiya) marosimini o'tayotgan o'smirlarda ham imo – ishoralar «tili» qo'llaniladi. Xususan Karl Shtrelov **aranda** qabilalari kishilarida 450 dan ortiq imo – ishoralar va harakatlar mavjudligini aniqlagan.¹ Masalan qo'lning to'rt barmog'i kaftga qo'yilib bosh barmoqning ikkinchi barmoqqa yopishgan holda, aylanma harakatlari «suv» ma'nosini bergan va hokazo. Avstraliya tillari jahon xalqlari tillarida o'ziga xos alohida o'rin tutadi va ularning birortasi bilan yaqinlikka ega emas. Avstraliya va Tasmaniya tillari umumiy tushunchalarga boy bo'lmasada, lekin aniq narsalar, buyumlarning eng mayda xususiyatlarini ham izohlab berishga qodir. Avstraliya tillarida sanoqni bildiruvchi so'z va tushunchalar ham kam uchraydi. Avstraliya tub aholisi 200 dan ortiq tillarda gaplashib, ular maxsus 20 ta til guruhida ega filaga birlashtirilgan. Ulardan yirigi **pama-nyunga**, aholining 2/3 qismining tillarini o'zida mujassamlashtirgan.

Avstraliyaliklar tashqi jismoniy xususiyatlari, nisbatan to'liq saqlanib qolgan hudud qit'aning markaziy qismidir. Xususan aranda qabilalari antropologiyasini barcha avstraliyaliklar uchun umumiy deb olish mumkin. Asosiy irqiy xususiyatlar: bo'yining o'rta yoki o'rtachadan silla baland ekanligi, ingichka tana, uzun qo'l – oyoqlar, sochlari to'liqinsimon, badanining rangi qoramtir – qo'ng'ir, yuz va badan tuklari qalin yoki o'rtacha qalinligi, peshona bo'rtig'i, keng burni, nisbatan qalin labi bilan ajralib turadi.

Avstraliyaliklarning umumiy belgilari: badanining rangi, iyagining oldingi chiqishi (prognatizm), burnining kengligi, labining qalinligi bilan

¹ Tur Xeyerdal. Kon Tikida sayohat. Toshkent. 1974. 37- bet.

melaneziyaliklar va papuaslarga o'xshaydi. Lekin sochning tuzilishi, uchinchi darajali badan tuklarining siyrakligi tuzilishida ham farqlar mavjud.

Aholini ko'pchilik qismi baliqchilik bilan shug'ullanadi. Asosiy ovqat suv osti o'simliklari va okean tubidagi malyuska, chig'anoq va turli turdagi baliqlarni iste'mol qilishadi. Kit ovlash taqiqlangan. Lekin akula tipidagi baliqlar aholining kundalik osiq-ovqati sanaladi. Ayrim joylarda aholi suv ustida ko'chib yuruvchi uylar qurishgan. Shu uylarga tayanib, baliq ovlab shaharga sotuvga chiqarishadi yoki o'zlarining boshqa turdagi iste'molini o'rnini to'ldirishadi. Muhimi aholi tinib tinchimas, nihoyatda mehnatsevar, ancha-munchaga kasal bo'lishmaydi.

Avstraloidlarga ma'lum yaqinlik seylonliklarda, Indoneziyaning (mayyaliklar) ichki hududlaridagi orollar aholisida uchraydi.

Yangi Zelandiyaning aholisi 82% britaniyaliklar avlodlari bo'lsa, 9% maorilar, 3% Okeaniya orollari, qolgan xitoyliklar hayndlar, arablardan iboratdir. Orol aholisining 75,9% shaharlarda, 24,1% qishloqlarda yashaydi. Mamlakatda erkaklarning o'rtacha yoshi 72,0. ayollarniki esa 77,9 yoshni tashkil qiladi.

Bugungi kunda aholining 81% protestant xristianlar, qolganlari katoliklar, baptistlar, metodistlar va presvetiranlardan iborat. Okeaniya orollari aholisini xristianlashtirish XVII ispan iyezuitlari tomonidan boshlab berilib, Mariann orollarida Yangi dinga o'tishni istamaganlar missionerlarni hamrohlari harbiylar tomonidan qirib yuboriladi.

Protestantlar faoliyati 1796 yili boshlangan. Hozirgi protestantlar ko'pchilikni 3 milliondan ortiq, xristianlardan, 2 millionini; katoliklar esa 1 millionga yaqinini tashkil qiladi¹.

Yangi Zelandiyada yashaydigan hindlarning yarmi 6 ming kishi induizmga, 2 ming musulmon bo'lib, islom diniga e'tiqod qiladi. Polineziyada islomning – bexaizm yo'nalishi tarqalib G'arbiy Samoada 3 ming, Yangi Zelandiyada 3 ming, Tongada 2 ming bezaistlar mavjud.

¹ Пучков П. И. Насилие Океании. М. «Наука». 1967. стр-73

2. Avstraliyaliklarning an'anaviy xo'jaligi, turmush tarsi.

Avstraliya va Tasmaniya aborijenlari ovchilik, termachilik bilan bir qatorda imkoniyat bo'lganda **baliqchilik** bilan ham shug'ullanishgan. Baliq ovlashda qarmoq, sanchqi, to'r hamda suvni zaharlab ov qilish usullari qo'llanilgan. Dengiz chig'onoqlari ham oziq sifatida ishlatilgan.

Tasmaniyaliklar xo'jaligi avstraliyaliklarnikiga nisbatan qoloqroq bo'lgan. Arxeologik qazishmalar qadimgi qatlamlarida tasmaniyaliklar ovlagan baliq suyaklari ko'plab topilgan, lekin keyingi davrda aholi proteinga talabi boshqa usullar bilan qondirilgani tufayli, balki ekologik o'zgarishlar natijasida baliqchilik bilan shug'ullanmay qo'yishgan. **Bumerangni** ko'pchilik faqat avstraliyaliklarga xos qurol deb hisoblashsada, uni qit'aning katta qismida umuman bilishmagan. Olimlarning farazicha bumerang Avstraliyaga ancha kech olib kelingan. Lekin yevropaliklar kelganda u ko'pchilik viloyatlarda mavjud edi. Ba'zi joylarda bumerangdan qurol sifatida emas, o'yinda takt uchun cholg'u sifatida foydalanishgan.

Irg'itganda qaytadigan bumerangdan esa sport buyumi sifatida foydalanilgan. Jangovar bumerang og'ir, zalvarli bo'lib, otganda ortga qaytmagan. Yuqorida ta'kidlaganidek bumeranglar, faqat Avstraliyaga xos bo'lmay qadim zamonlarda Yevropa va Misrda ham qo'llanilgan.

Avstraliya va Tasmaniyada ayollar uchun umuman buyumlardan biri, uchi **yo'nilgan tayoq** bo'lgan. Chamasi bir metr va undan uzunroq tayoqni avval quritib, so'ng cho'qda toblab uchini o'tkirlashgan. Ushbu mehnat quroli bilan yamsning tomiri uzilgan, yerdan asal chumolilari qazib olingan va u boshqa xizmatlarda ham ishlatilgan. Nulla – nulla nomli jangovar politsadan esa erkaklarga nisbatan ayollar ko'proq foylanishgan. U qazuv tayog'idan kalta va yo'g'onroq bo'lib Avstraliya hamda Tasmaniyada keng tarqalgan qurol bo'lgan.

Erkaklarning universal quroli nayzaning ikki turi: biri sanchish, ikkinchisi uzoq masofaga uloqtirish uchun mo'ljallangan. Ko'pchilikning

tasavvurida nayza avstraliyaliklarning bumerang singari «o'ziga xos» quroli hisoblanadi. Aslida bu fikr ham haqiqatdan ancha yiroq, albatta.

Nayza otish uskunasi – **vumera** Avstraliyaga nisbatan kech kirib kelgan bo'lib uni yer yuzining boshqa qismlarida ham uchratish mumkin. Bir manzildan 2 chisiga ko'chish davomida yoki ovda erkaklar nayza, vumera va bumeranglarni, ayollar esa oilaning boshqa buyumlarini va kichik bolalarni ko'tarib olishgan. Erkaklar doimo oldinda ovni (qushlarni) poylab, ayollar va bolalar ulardan ma'lum masofada harakatda bo'lgan.

Ayollarga tegishli idishlar – kosalar daraxt tanasi yoki tomiridan, Kvinslendning tropik o'rmonlaridagi daraxtlarning keng va qattiq yaproqlaridan yasalgan. Kattaroq idishlarda sabzavot yoki terilgan oziqlar olib yurilgan. Undan ba'zida go'daklar uchun belanchak sifatida ham foydalanishgan. Kovlash Tayog'i, idishlardan tashqari ayollarning o'simlik tolalari, daraxt po'stlog'idan to'qilgan xaltalari bo'lgan – **dilli** deb nomlangan bu sumkada tosh pichoq, shaxsiy buyumlar, ayollarning «qimmatbaho» narsalari, masalan yaqin qarindoshining suyagi yoki kenja farxandning quritilgan kindigi kabilar bo'lishi mumkin edi. Erkaklarning yelkasidagi kichikroq kopchalarida esa qayr oq, tosh qurol yasash uchun ashyo, shaxsiy buyumlar shoman va tabiblarda esa qo'shimcha kvars bo'lagi va h.k.lar saqlangan. Avstraliya aborijenlari yog'ochdan buyumlar yasashda tosh qurollardan foydalanishgan. Oziqni topish va tayyorlashda ham tosh qurollardan: xususan bolta, yorg'ichoq, qirg'ich, nayxa uchlaridan foydalanishgan. Tosh boltalar haqida fikr yuritilsa ularning qit'ada unchalik keng tarqalmagani kuzatiladi. Avstraliyaning janubiy – g'arbiy toshbolta umuman ishlatilmagan. Fanda toshni silliqlash neolitga oid ekanligi ta'kidlansada qit'adan arxeologlar topgan 22 ming yil burun toshboltani silliqlangani aql bovar qilmas voqeadir.¹

¹ Малаховский К.В. Соломоновы острова. М. «Наука». 1981. стр-72

Boshoqli o'simliklar donlarini yanchishda ishlatiladigan ustki tosh, ayollar tomonidan manzildan – manzilga olib o'tilsa, qo'l tegirmoni pastki qismi sifatida qoyalarning siniqlari xizmat qilgan. Ularda hosil bo'lgan chuqurchalar, ayollarning ko'plab avlodlari mehnatidan dalolat beradi. Arxeologlar topgan ayrim tosh qurollar xususan «otning tuyog'i»dan qanday maqsadda foydalanilgani hozirgacha noma'lum. Lekin keyingi 200 yil davomida ishlatilgan tosh qurollar vazifalari deyarli to'liq aniqlangan.

Ayollarning kiyimlari va hayot tarzlari: Asosiy kiyim unchalik katta bo'lmagan belbog'chadir. Avstraliyaning katta qismida hatto belbog'chani ham taqishmagan. Avstraliyaliklarning ko'chmanchi hayot tarzida doimiy va mustahkam yashash joyiga ham ehtiyoj bo'lmagan. Ayrim manzilgohlardan 2 va undan ko'proq marta foydalanishgan. Havoning issiq bo'lishi odamlarning deyarli yil bo'yi ochiq havoda kichikkina gulxan atrofida tunashlari imkonini bergan. Tog' ungurlari, g'orlarga kirish joylari yashash uchun foydalanilgan bu joylarda minglab yillar davomida to'plangan chiqitlar ham shundan dalolat beradi.

Normal sharoitda urug'chilik jamoalari o'zlari uchun yetarlik oziq to'plashgan. Lekin aksariyat holda oziqlar turi ko'p bo'lmagan. Nemis olimi Frederik Rouzning asaridagi quyidagi jadval ham shu fikrni tasdiqlaydi.

Ta'kidlash kerakki, **Grut** – Aylend dengiz qirg'og'ida joylashgan bo'lsa, **Diyerilar** dasht – cho'l zonasida yashaganlar. Aborigenlar ozig'ida yog' deyarlik bo'lmagan. Yovvoyi hayvonlarning yog'i bo'lmaganidan bu oziq turi kamyob (delikates) hisoblangan. Kamyob narsalardan yana biri qant edi. Markaziy Avstraliyada nikotin moddasi ajratuvchi **pituri** chaynalgan.¹

Avstraliyalikalda almashuv vujudga kelgan bo'lib, unda pituri muhim ashyo hisoblangan, lekin savdo kasbli kishilar toifasi hali shakllanmagan edi. Mavjud sharoitda mehnatning ijtimoiy taqsimoti ham bo'lmagan. Mehnatning biologik taqsimotida esa jinsiy va yosh xususiyatlari rol o'ynagan. Unga

¹ Народы Австралии и Океании. Под. ред. С.А. Токарева. М. Изд. Академии наук. 1996. стр-24.

binoan ayollar oziq to'plashdan tashqari bolalarni dastlabki yillaridagi tarbiyasini to'liq ta'minlashgan. Ikki tomonlama ma'suliyatli vazifalarni birgalikda bajarish yengil bo'lishi ehtiyoji ko'p xotinlik – **poligamiyaga** asos bo'lib xizmat qilgan.

Erkaklar orasida mehnatni yoshga qarab taqsimlanishi yaqqol aksini topgan. Yashaydigan hududini mukammal bilishni, hayqonlar xislatlarini o'rganishni talab qilib yaxshi tajribali ovchi bo'lish, mohir ovchilarni jamoada hurmati yuksak bo'lgan. Oziqa zahiralarini taqsimlash, ayniqsa qurg'oqchilik paytlarida ham muhim bo'lib bu vazifa bilan eng tajribali erkaklar shug'ullanishgan. Erkaklar 3 ta yosh guruhiga bo'lingan:

1. Yoshi 9ga qadar o'g'il bolalar.
2. Ov bilan shug'ullanuvchi 20-30 yoshdagi, lekin hali tajriba to'plashi zarur bo'lgan erkaklar.
3. Tajribali, mahsulot yetkazuvchi ikkinchi guruhni nazorat qiluvchi erkaklar.

Avstraliyaliklarda ikki xil: shaxsiy va jamoa mulklari bo'lgan. Shaxsiy mulkka qurol: nayg'a, yer kovlash tayoqlari kirsas, yer uchastkasi, ishlab chiqarish vositalari doim jamoa mulki bo'lib qolgan. Ba'zida biror kishiga o'z hududida ovga yoki terimchilikka ruxsat berilsada, bu holat jamoaga nisbatan qo'llanilmagan.

Loyal guruhlarining xo'jalik yuritishdagi hamkorliklari: Ma'lum hudud egasi bo'lgan alohida guruh 30 – 60 tagacha erkak, ayol va bolalardan tashkil topgan. Shu xildagi 10 – 15 guruh «qabila»ni yoki lokal guruhlar birlashmasini tashkil etgan. Ular o'zaro uzviy iqtisodiy – ijtimoiy munosabatda bo'lib o'zaro tushunadigan **kommunalektda** (tilda) gaplashganlar. Lokal gurug'larning nomi bo'lsa, «qabila» umumiy nomga ega bo'lmagan, yerga egalik patrilokal huquq tarzida erkaklar orqali avloddan – avlodga o'tgan. Ayol turmushga chiqqandan so'ng erining guruhida hisoblangan. Qizga 9 yoshidan o'zlarining birinchi erlari jamoasida yashashgan. Keyingi erlari ham shu guruh a'zolari bo'lishgan. Qizlar ishlab chiqarishda faol ishtirok

etmaganidan ularning ketishi gurug' uchun kata yo'qotish bo'lmagan. Erkaklar esa juda kech uylangan, ularning ko'pchiligi agar 30 yoshida uylansa o'zini baxtli hisoblagan.¹ Lokal guruh siyosiy birlik hisoblanib, uni norasmiy oqsoqollar kengashi boshqargan. Ushbu kengash o'z hududidan foydalanishda ham asosiy qarorlarni qabul qilgan. Qo'shni guruhlar bilan nikoh va initsiatsiyalar muommolarini hal etish ham kengashning muhim vazifalaridan edi. Lokal guruh a'zolari soni hududning ekologik imkoniyatlari bilan belgilangan. Boshqaruvning ahamiyatini oshirish oqsoqollarning doimo uchrashib turishlari taqozo etgan. Ushbu sharoitda lokal guruhlarining katta birlashmasi kam unumli bo'lib, parchalanib ketishi mumkin edi. Shimoliy Amerikadagi irokezlar bilan qiyoslasak avstraliyaliklar «qabilasi» soni siyosiy maqsadlardan emas, balki moddiy omillardan kelib chiqib tashkil etilgani guvohi bo'lamiz. Lokal guruhning sonini chegaralovchi Yana bir omil kommunikatsion imkoniyatlarning cheklanganligidandir. Avstarliya aborigenlari iqtisodiy birligining yana bir turi "forging group"- kata xo'jalik guruhi hisoblanadi. Bu turdagi guruh birgalikda yashab ovchilik, terimchilik bilan shug'ullanish uchun yaratilgan. Uning soni 20 dan 40 tagacha erkak, ayol va bolalardan iborat bo'lgan, yetarlik oziq bo'lgan taqdirda yuzlab aholi bir necha hafta va hattoki oy davomida bir joyda yashashi mumkin edi. Xuddi shu paytda initsiatsiya marosimlari va boshqa udumlar o'tkazilardi.

Ko'pincha oziq-ovqat yetarli bo'lsada, qo'rg'oqchilik paytlarida kata qiyinchiliklar tug'ilgan. Vujudga kelgan sharoitda alohida guruhlar, hamkorlikda harakat qilishga majbur bo'lganlar. Lokal guruhlar hududlaridagi oziq imkoniyatlarini birlashtirish esa qurg'oqchilikdan kamroq yo'yotishlar bilan chiqish imkonini bergan. O'zaro aloqalar, hamkorlik nikoh va initsiatsiya bilan mustahkamlanib borgan. Ularning har ikkisi ijtimoiy emas iqtisodiy asosga ega bo'lgan.

¹ Народы Австралии и Океании. Под. ред. С.А. Токарева. М. Изд. Академии наук. 1996. стр-46

Oila va oilaviy munosabatlar: nikoh, initsiatsiya va qarindoshlik munosabatlari. Nikoh o'sib kelayotgan avlodning hayotini dastlabki yillarida barqaror himoyalash uchun paydo bo'lgan. Tadqiqotchi Eylmanning yozishicha ichki viloyatlarda, shuningdek shimoldagi dengiz qirg'oqlaridagi jamoalarda erkaklar 25 yoshgacha bo'ydoq bo'lganlar, ular yoshi katta ayollar bilan aloqada bo'lishga majbur edilar. Shu bilan birgalikda qariyalar, jamoada muhim o'ringa ega bo'lib ularning ko'p sonli xotinlari ichida turli yoshdagilari, shu jumladan o'smir qizlar ham bo'lganlar.

Bu haqdagi ma'lumotlar qit'aning barcha hududlaridan to'plangan bo'lib, olimlar ushbu nikoh turiga **poligin – gerontokratik** deb nom qo'yishgan. «Gerontokratik» atamasi jamoada qari erkaklar hukmronligini anglatadi, mavjud sharoitda unchalik aniq bo'lmasada, ma'no jihatidan qoniqarli deb topilgan. Gerontokratik nikohda qari erkaklar qizlarga yoki yosh juvonlarga uylangan. U ko'p xotinli bo'lganidan poligin deb ham izohlanadi.

Etnolog F. Rouzning 1938 va 1941 yilgi tadqiqotlari natijasida aborijenlardagi yozilmagan qonunlarga binoan nikohning ushbu turi shakllangani aniqlangan. Masalan ayollar 42 yoshdagi erkaklarga turmushga chiqishi an'anasi mavjud bo'lib, ayollarning ko'pchiligi 24 yoshda bo'lishgan. Bu an'ananing sababi qiz tug'ilmasdan avval 30 yoshlik va undan ham katta yoshdagi erkakka va'da qilib qo'yilgan. Guruh ichida nikoh bo'lmasligidan qo'shni guruhlar munosabatlarida bu kabi qiz almashinuvlari bo'lishi tabiiy edi.

Qizga 9 yoshga tuglанда o'zining birinchi erinikiga kelib yashay boshlaydi. Chamasi 14 yoshida birinchi farzandini tug'adi. Shundan keyingi uning asosiy vazifasi farzand tug'ish va tarbiyalash bo'lib qoladi. Ayolning hayotida 24 yoshida yangi omillar vujudga kelib, agar birinchi farzandi qiz bo'lsa uni erinikiga o'tkazishadi, o'qil bolani initsiatsiyadan o'tkazishib, ona ular uchun masuliyatdan xalos etiladi. Ayol esa tug'ishni davom etsada, uning bu boradagi qobiliyati susaya boshlaydi.

Erkaklar 42 yoshida eng quvvatga kirgan, tashkilotchilik faoliyati cho'qqisida, oilasini yaxshi ta'minlash darajasida bo'ladi. Grut – Aylendga oid 1941 yilgi ma'lumotlarga qaraganda 19 – 24 yoshli barcha ayollar ko'pxotinlik sharoitida yashashgan. Tabiiy 24 yoshli ayollarning 42 yoshdagilar bilan yashash imkoniyati darjasi eng yuqori bo'lishi bilan birgalikda, ularda boshqa ayollar bilan bir oilada yashash, bolalar tarbiyasini hamkorlikda olib borishga moyillik ham kuchayadi.¹

Aborijenlar jamiyatida ayollar 9 yoshidan to umrining oxiriga qadar nikohda bo'lgan. Natijada ayollar ham erkaklar ham o'rtacha 4 marta rasmiy nikohda bo'lishgan. Avstraliyaliklar jinsiy aloqa va bolalar tug'ilishi orasidagi bog'liqlikni tushunmaganlar. Ular bolaning ruhi totem markazidan onasining qornida harakat boshlamasdanoq kelgan deb tasavvur etkanlar. Jinsiy aloqa esa ayolni bolaning ruhi kirishi uchun «ochishga» yordam bergan deb tushunishgan. Shimoliy Avstraliya qirg'oqlarida va Xiterland jamoalari jinsiy aloqa hamda bola tug'ilishi orasidagi aloqani qit'aga kelib turadigan indoneziyaliklar orqali bilganlar. Bola tug'ulishi va tabiat in'omlari avstraliyaliklar udum, marosimlarning bosh mavzusidir, unda ayollar qatorida erkaklar ham o'z o'rniga ega. Bundan farqliroq Avstraliyaning janubida urf-odat va marosimlarda faqat ayollar asosiy rol o'ynaydi.²

«O'ziga o'xshaganlarni» yaratish muammosidan xabari bo'lmagan joylardagi odamlarning tasavvurida ayol o'z umri davomida ko'p bola tug'ishi lozim va erkaklarning bu tadbirga aloqasi yo'q deb tushunilgan. Shunga qaramasdan nikoh va oila mustahkam bo'lib, uning asosiy omili kundalik moddiy – iqtisodiy muammolarni yechish zaruriyati bo'lgan desak xato qilmaymiz. Tasmaniyaliklar nikoh munosabatlari haqida esa u yerda bo'lgan yevropaliklar yozmalari asosida fikr yuritish mumkin xolos. Ularga asoslanib orol aholisi orasida poligamiya, monogamiya, ma'lum darajada

¹ Salimov T.U. Avstraliya va Okeaniya xalqlari. (O'quv-uslubiy qo'llanma). T. O'z. MU. 2003. 22- bet .

² Основы этнографии. Под. ред. С.А. Токарева. Учебник. М. Мысль. 1992. стр-52

poliandriya ham bo'lganini ta'kidlash mumkin. Ushbu xabarlariga tanqidiy yondashib tasmaniyaliklar jamoalarida ham ko'pxonalilik, shu jumladan gerontokratik nikohlar bo'lgani shubhasiz. Avstraliyaliklar nikoh munosabatlariga ko'ra 15-30 yoshdagi erkaklar xotinsiz bo'lishgan. Qirqdan oshgan erkaklar xo'jalik faoliyati va tashkilotchiligi yuqori bo'lsada jismoniy imkoniyatlari albatta zaiflashib borgan. Tabiiy yosh erkaklar va ayollar orasida yashirincha nikohsiz munosabatlar ham uchrab turgan. Yoshlarning xotinlari uchun kattalar bilan janjallarini ma'lum chegarada ushlab turuvchi omil initsiatsiyaning (erkaklar qatoriga o'tqazish marosimi) kata yoshdagilar qo'lida bo'lishi edi.

Initsiatsiya: Avstraliya va Tasmaniya aholisining o'zlashtirish xo'jaligiga asoslangan turmushlarning asosiy himoyachisi bu **ekzogam** nikoh edi. Ekzogamiya qonuniyatiga binoan erkak boshqa guruh vakilasiga uylanishi lozim bo'lgan.

Kelishuvga binoan ayolni qo'shni guruh erkakga berilishi vada qilinishi bilanoq «kuyov» o'z oila azolari bilan «kelinning» hududida ov va termachiligi bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan. Shu sababdan bir necha lokal guruhdan «qayliq» olgan ovchining jamoadan hurmati yuksak bo'lgan. Sababi u turli lokal guruhlarni bog'lovchi vosita bo'lib qoladi. Erkak shuningdek onasining jamoa hududida ov qilish huquqiga ega edi. Avstraliyaliklar uchun nikoh: gerontokratik, ekzogamiya, poligamiya tushunchalari bilan ifodalanmagan. Aborijenlar nikohga lokal guruhlarning «diplomatik aloqalari sifatida, birinchidan bolalarni tarbiyalashni muhim vositasi, ikkinchidan tabiat yaratgan imkoniyatlardan to'laroq foydalanish uchun vosita sifatida qarashgan. Lokal guruhlar kooperatsiyasi o'smirlarni initsiatsiya orqali hayotga tayyorlash imkonini beradi. Bu udum – marosimlar bir necha yil davom etgan va o'zsmirlarning jinsiy balog'atga yetishishdan 20 yoshga qadar o'tkazilgan. Initsiatsiya tugatilgandan so'ng erkak nikohga kirib oila tuzishga ruxsat olgan. Avstraliyaliklar initsiatsiyaning ikkita umumiy xususiyati. O'smirlarda o'smirlarni tarbiyalash va qari erkaklarning yoshlarni

sinovlarga tayyorlashi bo'lgan. Qit'a hududlarda sinovlarning umumiy turlari bilan birgalikda, o'ziga xos xususiyatlari ham bo'lgan. O'smirning tishini urib sindirishi, badan tuklarini sug'urish, sunnat qilish badanida tosh pichoq bilan tilimlar qilish va hokazolar. Sinovga ma'sul qariyalar yigitlarning guruhlaridan bo'lmagan. O'smirlarga ma'sul qariya ko'pincha yigitning onasi jamoasidan bo'lgan. Keyinchalik yigit shu jamoadan uylanishi hollari ham ko'p uchragan. Gurut Aylend orolida yigitning homiysi sifatida ko'pincha singil opasining eri «pochchasi» ishtirok etgan. O'g'il bolalar 9 yoshida sunnat qilinganidan so'ng doimo o'z homiysi bilan yashab, undan erkaklar uchun zarur saboqlarni olgan. Homiy shogirdidan qattiq intizomni talab qilgan. O'smir 19 yoshga to'lgan, «qullik»dan xalos etilgan. Bu voqea homiyni o'smir ko'krigiga ramziy qon chiqarib, birinchi tirtiqni solish bilan yakunlangan. Ushbu udum initsiatsiyaning birinchi dastlabki davrasi yakunlanganidan darak bergan.

O'tgan davr ichida ustoz shogirdiga ovchilik sirlarini o'rgatgan. Amaliy mashg'ulotlar homiy va shogird jamoalari hududlarida olib borilgan. Bag'ishlanuvchi rasman erkin bo'lsada ustozining keyingi sinovlarga, initsiatsiyaga tayyorgarligi uchun javobgar bo'lgan.

Ikkinchi bosqichda yigit avlodlari afsonalari, urf – odat udumlari bilan tanishib va ularni yodlay bilishi zarur edi. Ushbu afsonalar Aborijenlar jamiyatining ma'naviy asosi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda bag'ishlanuvchi amaliy hayotga tayyorgarlikni davom ettirib suv manbalarini qurol – yaroq tayyorlashni, unga ashyo topishni va hokazoni o'rganadi. Qizlarni ham initsiatsiyadan o'tkazilishi haqida ma'lumotlar uchrasa o'smirlar sinovlari oldida, ularning ahamiyati unchalik katta emas albatta. Qizlar birinchi erinikida katta xotinlardan tajriba olishgan. Lekin ayollar uchun saboqlar o'zining jinsiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Qarindoshlik munosabatlari: Aborijenlarning norasmiy «qabilasi» taxminan 500 kishidan iborat bo'lib, ular bir – birlari qarindoshlikni anglatuvchi 16 ta qarindoshlik atamalari yoki kategoriyalari mavjud edi. Bizda «ota», «ona»,

«xotin», «er» va boshqa iboralar bilan faqat ma'lum shaxslar atalsa avstraliyaliklar bunday atama bilan bir guruh odamlarga murojaat qilishadi. Xususan avstraliyaliklar xotin deb u o'ylanishi mumkin tabiiy «er» hisoblangan. Xuddi shu kabi «ota» uning uchun haqiqiy otasi guruhidagi barcha erkaklar, «ona» ham ushbu nikoh doirasidagi barcha ayollar hisoblangan.

Masalan, Arrandalik nikoh doirasi Appungertlik erkak, Pannung nikoh toifasida katta erkaklarni – **kata** (ota), Purul nikoh toifasida katta ayollarni – **mayya** (ona) o'zining guruhidagi erkaklarni esa – **kalya** (katta aka) yoki - **itia** (uka), keksalarni – **aranga** (bobo) deb atashgan. Arandalar otasining akalarini ham – **kata** (ota) deb atasa, onasining akasini – **kamuna**: onasining singillarini onasi kabi – **mayya** deb ataganlar. Otasining singillarini – **vona**, o'zimizning «amma» atamamizga mos keladi. Loritiya qabilasida katta aka – **kuta**, katta opa - **kvayya**, kichik uka va kichik singil **itia** deyilgan. O'ziga xos atamalardan er – xotin bir – birini arandalardan - **noa** deb atalsa aravanlarda – **nupa**, narriyenerilar – **kapi**, loritiyalar – **kuri** deb atashidir. Bobo va nabira atamalari bir xil arandalardan – **aranga**, arabanlarga esa – **kadnini** deb nomlanadi. yevropaliklarda uchramaydigan yana bir o'ziga xos narsa ma'lum bir atamaning: xotinining ota-onasiga nisbattan, yana birini akasining qizi va o'g'lining xotiniga nisbattan, boshqa birini esa – xotinining akasining qizini va xotinini atashidir. Qarindoshlik atamalarining o'ziga xosligi avstraliyaliklarning nikoh munosabatlarining xususiyatlaridan hisoblanadi.¹

Qochuv udumlari: Boshqa xalqlarda jumladan o'zbeklarda ham uchraydigan udumlardan biri «qochish»dir. O'zimizda kelin kiyovlar fotihadan boshlab, to'ydagi yuzochar udumiga qadar qaynota qaynonasidan «qochgani» qishloqlarimizda hozirga qadar mavjud. Avstraliyaliklarda esa kuyovning qaynonasidan «qochishi» kuzatiladi.

¹ Salimov T.U. Avstraliya va Okeaniya xalqlari. (O`quv-uslubiy qo`llanma). T. O`z. MU. 2003. 25 -bet .

3. Avstraliyaliklarning diniy tasavvurlari

Avstraliyaliklarning dinlari XIX asrning oxiridan o'rganila boshlangan. Diniy tasavvurlarda umumiy xususiyat bilan birlikda, ayrim qabilalarga xos xususiyatlar ham uchrab turadi. Asosiy diniy tasavvur - totemizm va fetishizm bo'lib, unda avstraliyaliklar odamlar va moddiy ashyolarning, hayvon yoki o'simlik bilan bog'liqligiga ishongan. Totemizim barcha ibtidoiy qabilalarda yer yuzining deyarli barcha burchaklarida yoyilgan bo'lsada faqat Avstraliyada o'ziga xos va yuksak taraqqiyotga erishgan. Avstraliyaliklar qabilasining har bir urug'i – jamoasi o'z totemiga ega bo'lgan. Jumladan diyerilarning: Gilam, Ilon, Qarg'a, Qurbaqa, Kalamush, Ko'rshapalak, Qo'ng'iz, Yerteshar, Dingo, Yomg'ir va hokazo totem guruhlari mavjud. Hayvon yoki narsa nomi bilan atalishi totem yoki fetish avstraliyaliklar tilida turlicha: **ngaite, murdu, knandisa, kobong** va hokazo nomlangan. Eng asosiysi har bir urug' jamoa o'zining kelib chiqishini nomini olgan totemiga bog'laydi. Buni hatto sig'inish yoki muqaddaslashtirish deb ham atab bo'lmaydi. Avstraliyalik uchun totem – xudo emas, qadrdon yaqin narsa hisoblanadi. Olimlar bilan suhbatda aborijenlar totem haqida «bu mening otam», «mening katta akam» yoki do'stim», «odamning qismi» deb javob berganlar. Totemga yaqinlik uni ovlash va taomda ishlatishning ta'qiqlanishidir. Faqat qattiq ocharchilik natijasidagina ushbu ta'qiq – tabuni buzishi mumkin bo'lgan. Olimlardan birining yozishicha ilojisiz qolgan buandik qabilasiga oid ovchilar qayg'u bilan «vingong» (do'sti) yoki «tumanang» «(o'z go'shtini)» yeyishga majburligini ko'kragiga qo'lini qo'yib o'zining yaqini, bir qismi ekanligini izhor etgan. E.Palmerning yozishicha kvinslendlik aborijenlar o'z totemlariga «katta hurmat bilan qaraganlar, agar ularning huzurida kimdir totem hayvonini o'dirlirsa: «Nega bu yigitni o'ldirding ? «Bu mening otam» yoki «Mening akamni nega o'ldirding?»¹ - deb e'tiroz bildirishadi.

¹ Salimov T.U. Avstraliya va Okeaniya xalqlari. (O`quv-uslubiy qo`llanma). T. O`z. MU. 2003. 26 -bet .

Bazedovning yozishicha u kichkina qoramir – sariq ilonni o'ldirganda, uning oldidagi **aluridya** vakili o'z og'aynisiga hayajonlanib: «Afsus mening ukam o'ldi!» - deb murojaat qilgan.¹ Ko'pchilik qabilalarda jumladan Markaziy Avstraliyaja tabu – totemining go'shtiga nisbatan qo'llanilgan Aranda va unga qardosh qabilalarda totem go'shtini kam miqdorda iste'mol qilish mumkin bo'lgan. Shimoldagi – **kakadu, vargait**, shimoliy – g'arbdagi – **kariyera, ngaluma, mardudunera** qabilalarida totem hayvonga nisbatan ta'qiq umuman bo'lmagan². Totemni o'ldirishga ta'qiq faqat ma'naviy tusda bo'lib, bu holda faqat norozilik bildirilgan. Deyarlik barcha qabilalarda totemlar bilan bog'liq afsonalar, ma'lum urug'larning vujudga kelishini izohlaydi. Mustamlaka siyosati boshlangunga qadar Eyr qo'lidan shimolda Karpentariy bo'g'ozigacha odamlar o'zlarini totemning ma'lum jonli qismi deb hisoblashgan. Bu xususiyat ayniqsa arandalarda yaqin namoyon bo'lgan. Ularning tasavvuricha totemni inson onasining qornida paydo bo'lgan joyda olgan. S.P. Tolstovning fikricha bu, totemning ma'lum joy bilan bog'lanishi esa juda qadimgi (arxaik) xususiyatdir.

Totemizm, sehrgarlik. Totemizm bilan bog'liq ko'plab muqaddas buyumlar bo'lib, ularning orasida eng mashhur arandalarning va qo'shni qabilalarning «churingi»laridir. Spenser va Gillenlarning yozishlaricha «churinga» atamasi barcha sirli va sehrli narsalarga aytilsada, amalda 8 – 15 sm.yalpoq tosh va daraxt bo'laklari bo'lgan. Churingada turli rasmlar doira va yarim doira shaklidagi chizmalar, parallel chiziqlar va nuqtalardan iborat. Ular totem ajdodlari va ular haqidagi afsonalarni o'zida aks ettirgan. Avstraliyaliklar churinganing sehrli kuchiga ishonganlar. Kasal kishilar churingadan biroz changni (parashok) suvga qoqib tushirib dori sifatida ichganlar. Jangda churinga egasiga qo'shimcha kuch baxsh etadi deb tushunilgan. Totem guruhining umumiy churingasi maxsus muqaddas joyda – o`rnatulungada

¹ Salimov T.U. Avstraliya va Okeaniya xalqlari. (O`quv-uslubiy qo`llanma). T. O`z. MU. 2003. 26 -bet .

² Народы Австралии и Океании. Под. ред. С.А. Токарева. М. Изд. Академии наук. 1996. стр-49

saqlangan. Unga begonalar, ayniqsa ayollarning kirishi ma'n etilgan. Tadqiqotchi Karl Shtrelovning yozishicha atama Tjurynda shaklida yozilib: tyu – «sirli», yashirin, runga – «xususiy» ma'nosini beradi¹.

Initsiatsiya sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan o'smirlarga tyurungunu ko'rsatgan qariya unga: «Bu sening tanang, sening egizaging» deb ta'kidlagan. Avstraliyaliklarning ko'plab mahalliy totemistik markazlari bo'lgan. Avstraliyaliklar dinlari faqat totemizm bilan kelanib qolmagan. Ularning orasida zarur yetkazuvchi afsungarlik alohida o'rin tutadi. Aborigenlar sehrgarlikdan juda qo'rqib, har qanday kasallikni, o'limni u bilan bog'laydilar. Qisman sevgi sehrgarligi ham bo'lib, uning maqsadi o'zga jins vakilini o'ziga qaratish hisoblangan. Masalan, arandalik yigit ayolni o'ziga qaratish uchun opossum junidan to'qilgan maxsus bog'ichni (chilarani) boshga kiygan. Agar ayol chilarani ko'rsa kechasi yigitning chaylasiga albatta keladi, deb tushunilgan. Old tomonidan beliga taqiladigan chig'anoqlardan yasalgan lonka – lonka taqinchog'i ham shu maqsadga qaratilgan. Avstraliyaliklar zarar yetkazuvchi va sevgi afsungarligini barchaga xos, har bir kishining imkoniyati darajasidagi tadbir deb tushunishgan. Undan farqliroq davolash magiyasi maxsus tabiblar ixtisosi hisoblangan. Tabiblik o'z ildizi bilan ibtidoiy xalqlar meditsinasiga borib taqaladi. Lekin avstraliyaliklarda magiya va tabobat orasida ma'lum farq bor. Xalq meditsinasidan odamlar kundalik hayotda tez – tez foydalanib turganlar: turli shifobaxsh o'simliklarni qo'llash, og'rigan joyni bog'lash, uqalash va yo bilan uqalash, qon chiqarish deyarli barchaga ma'lum bo'lib u yoki bu shaklda qo'llanilgan. Lekin afsungarlikka oid davolash usullarini faqat professional – «tabiblar» qo'llashgan. Bunday tabib – **shamanlar** ko'pincha dardni inson tanasidan so'rib mayda tosh yog'och sifatida tuflab tashlaganlar. Tabiiy bu narsalar oldindan og'izga solib olingan. Shamanlar amaliyoti avstraliyaliklarda totemizm darajasida bo'lmasada animizm ham

¹ Tur Xeyerdal. Kon Tikida sayohat. Toshkent. 1974. 34-bet.

mavjudligidan darak beradi. Lekin ruhlar aqidagi tushuncha avstraliyaliklarda aniq bo'lmagan uni tasvirlash ham mushkul¹.

Dafn marosimlari. An'anaviy dafn marosimlari o'zining rang – barangligi bilan ajralib turadi. Avstraliyada yer yuzidagi mayitning tanasi bilan bajariladigan barcha munosabat turlarini: yerga ko'mish, yondirish, daraxtlarning ustiga dafn etish, mo'miyolash qisman yoki ikkilamchi dafn etish va hatto o'z holicha qoldirib ketish hollarini ham uchratish mumkin. Shubhasiz u ichida eng qadimgisi mayitni qoldirib ketish bo'lgan.

Xauitning yozishicha janubda yashovchi **iyerzlamini** qabilasida kasal yoki yaradorga yaxshi qarashgan. Lekin o'limi muqarrar bo'lganda uni gulxan yonida qoldirib, bu joyga uzoq paytdan keyin qaytishgan. Tabiiy, bu uslubni keng tarqalgan deb bo'lmaydi. Janubiy, sharqiy va shimoliy – g'arbiy qirg'oq qabilalarida - endokannibalizm – o'lganlarni yeyish hollari ham bo'lgan. Mayitning tanasini saqlash – mo'miyolash avstraliyaliklarda o'ta soda gulxan ustiga maxsus tancha qurib dudlash orqali amalga oshirilgan. Xususan **yualayi** qabilasi ayollari birmuncha payt o'zi bilan mumiyolangan farzandi tanasini olib yurgan. **Kayabaralar** esa qabilaning e'zozli vakillari mo'miyosini yarim yilcha olib yurganlaridan keyingina yerga ko'mishgan. Dafn usullaridan yana biri daraxt ustida yoki maxsus qurilgan daraxt ustidagi supada mayitning dafn etish bo'lgan. Eng keng tarqalgan va oddiy usul tabiiy yerni qazib dafn etish bo'lgan. Mayit ba'zida to'g'ri chuqurga, ba'zida qabrning yon tomonidan qazilgan laxatga dafn etilgan. Mayitni buklangan, bog'langan holda (ngarigo, diyeri, kapilaroi va hokazolar) dafn etish ham kuzatiladi. Qabrga marhum bilan uning biror shaxsiy buyumini ma'lum oziq-emish avstraliyaliklarda ham keng tarqalgan. Bu usul: **kuxata, gurdichmara, viradyuri, chepara** qabilalarida mavjud bo'lgan. Marhumlarga aza tutish ham keng tarqalgan. Ovoz chiqarib yig'lashda ba'zida jamoaning barcha a'zolari qatnashgan va bu udum uzoq payt qo'llanilgan. Taomdagi cheklashlar,

¹ Тип Хейердал. Деревенный человек и океан. М. Мысль. 1982. стр – 62.

bevaning 1 yil va undan ham ko'proq vaqt davomida so'zlashishi ta'qiqlari bo'lgan. Ushbu davrda ayol faqat imo – ishoradan foydalanishi mumkin bo'lgan, xolos¹.

Xalq og'zaki ijodi. Musiqa, tasviriy san'at, atrof – muhit haqidagi bilimlar.

Avstraliyaliklar madaniy jihatdan boshqa qit'a aholisiga nisbatan qoloq bo'lsalarda, ulardagi xalq ijodiyoti namunalari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Avstraliyaliklar xalq og'zaki ijodi – folklor nisbatan yaxshi o'rganilgan. Tadqiqotchilar turli afsonalar, ertaklar, hikoyalarni yozib qoldirganlar. Ulardan totemlari haqidagi rivoyatlar, dunyoning paydo bo'lishi, osmon yoritgichlari, odamlarning vujudga kelishi, to'qon, g'ayritabiyy kamalak – ilon haqida va boshqalarni misol keltirish mumkin. Avstraliyaliklar ertaklari juda ham soda bo'lib unda, hayvonlar, ba'zida afsonaviy yarim hayvon, yarim odamlar viloyat bo'ylab sayohatga chiqadi, ov qilishadi, taom yeb uxlashadi. Urushadilar, bir – birlarini o'ldiradilar, umuman ertakni so'zlovchilar kabi hayot kechirishadi. Avstraliyaliklar musiqa san'atining asosiy soasi qo'shiq aytish bo'lib, unga ritm harakatlari bilan jo'r bo'lishadi. Musiqa asboblari Avstraliyada deyarli uchramaydi. Ba'zida qo'shiqchi ovozini kuchaytirish uchun yog'ochdan yasalgan karnaysimon uzunligi 60 sm. eniga 5 sm.li trubadan foydalaniladi. O'yinlar musiqa jurligida olib borilgan. Aborijenlar o'yin raqslari yevropaliklar tomonidan – korrobori deb nomlangan. Avstraliyaliklar o'yinlariga xos asosiy belgilar, bu ularning guruhiyligi, tasviriyligi ifodali ekanligi hamda ularga katta e'tibor qaratilganidadir. Raqsda erkaklar ov sahnalarini tasvirlashga harakat qilganlar². Har bir raqsni o'zini nomi bo'lgan. Ko'pincha erkaklar er tepinishsa, ayyollar gir aylanib ularga jo'r bo'lishgan. Odatda raqslar ma'lum bir hosil, ov va muhim marosimlarni o'tashga, yoki uni baroridan kelishiga umid maqsadida bajarilgan.

Tasviriy san'at: Go'zallikka intilishi avstraliyaliklarni qalqon, palitsa, bumeranglarini, qoyalarga, toshlarga ajoyib tasvirlarning qo'shilishi esa

¹ Тип Хейердал. Деревенный человек и океан. М. Мысль. 1982, стр – 64,

² Пучков П. И. Этническая развитие Австралии М. «Наука». 1987. стр – 71.

muqaddas suratlarning yaratilishiga asos bo'lgan. Natijada tasviriy san'at 2 ta: muqaddas, diniy – sehrgarlik mavzusidagi va estetik zavq bag'ishlovchi bezak hamda rasmlarga bo'linadi. San'atning yana bir turi badanni naqsh va rasm – chizmalar bilan bezashdir. Uning davomi sifatida avstraliyaliklar qurollari va buyumlari (churinga, vaninga va h.), qoya hamda g'orlarda ajoyib tasvirlar qoldirganlar. Kesish, o'yin rasm solishdan tashqari, aksari hollarda bo'yoq bilan tasvir tushirilgan. Bo'yoqlar turi cheklangan bo'lib: oq tuproq yoki gipsdan oq bo'yoq sifatida, oxradan – sariq va qizil, ko'mirdan – qora bo'yoq sifatida foydalanilgan. Boshqa ranglar bo'lmaganidan ularning nomlari ham avstraliyaliklar tillarida uchramaydi.

Avstraliyaliklar bilimlari yashab turgan joylari, ulardagi oziq va o'simliklar, hayvonot olimini mukammal bilishga yo'naltirilgan. Tadqiqotchilar aborijenlarning kimsasiz dashtda yo'l, suv, taom topa olishlariga alohida e'tibor qaratishgan. O'zlari ko'chib yuradigan hudud jamoaning qadrdon uyidek bo'lib undagi har bir toshni, daraxtni, suv havzasini yaxshi bilganlar.

Ularning amaliy botanikadan ajoyib bilimlari bo'lib aborijenlar yuzlab o'simlik, daraxt, butalar navlarini ularning foydalik xususiyatlari hamda oziq sifatida ishlashtirish usullarini bilishgan¹. Ayollar yeyishga mos bo'lmagan o'simliklar mevasi, ildizini hatto zaharli, yovvoyi ekinlarni murakkab yo'llar bilan qayta ishlab iste'molga tayyorlaganlar. Ko'chmanchi, daydilikdagi hayot tarzi tabiiy ilmiy bilimlarning taraqqiyotiga halaqit bergan. Lekin ovchilik guruhlari jamoalarning doimiy ijtimoiy – iqtisodiy aloqalari, qabilalararo uchrashuvlar, o'zaro almashinuvlar odamlar dunyoqarashining kengayishiga xizmat qilgani, shubhasiz. Avstraliyaliklarning 300 dan ortiq o'simliklardan oziq sifatida foydalana olishlari ham shundan darak beradi. Avstraliyaliklar tomonidan qo'llaniladigan eng oddiy medetsina va jarrohlik usullari ham to'la asoslidir. Xususan, qo'l – oyoqning yaralanishi, sinishi, chiqishi hollarida ular o'zlarini davolashni bilishib, tabib va folbinlarga hatto murojlat ham

¹ Австралия и Океания. История, экономика, этнография. М. «Наука». 1978.стр- 63.

qilmaganlar. Qon chiqayotgan joyga loy, ilonning yoki boshqa hayvonning yog'ini, qushning axlati, ayrim daraxtlarning shirasini, fikusli o'simlikning sutli sokini, yanchilgan tanasini oxra aralashtirib bosganlar. Negadir ular infeksiya tushushidan qo'rqishmagan. Yuqorida qayd etilgan narsalardan shish va yaralarni davolashda ham foydalanganlar.

Tadqiqotchi Drobetsning qayd etishiga bu usullarning ayrimlari yevropa meditsinasida ham tan olinadi. Yarani mayin daraxt po'stlog'i bilan bog'lashgan. Qon to'xtatuvchi vosita sifatida ko'mir kukuni, kul, iguana yog'idan foydalaniladi. Qo'l oyoq singanda yog'ochdan taxtakach qilinib, daraxt tpo'stlog'i bilan mahkam bog'langan. Ilon chaqqanda, o'sha joyni so'rib tashlash, chaqilgan qismni qattiq bog'lash, yarani kuydirish sirkulyar tarzda yarani kesish usullarini qo'llashgan. Bosh og'riganda, revmotizmida tanadan kesib qon chiqarishni bilishgan. Og'rgan tishni ip bilan bog'lab sug'urib olishgan. Ba'zida narkotik moddasi mavjud o'simlik (ilon,o't») qo'yib og'riqni yo'qotish usulidan foydalanilgan. Teri kasalliklari unga tuproq, qizil oxra, ba'zi ildizlardan olingan suyuqlik yoki siydik bilan yuvish orqali davolangan.

Shamollashda, issig'i ko'tarilganda sovuq kompress qo'yilgan. Shamollagan, revmatik kasallarni terlash bilan davolashga harakat qilingan. Shu maqsadda janubiy – sharqda yashaydigan qabilalar chuqur qazib, uning ichini qizdirilgan toshlar bilan to'ldiradilar, ustidan ho'l yaproqlar bilan yopishib, chuqur ustini tom qilishadi, yaxshilab o'ralgan kasal, uning ustiga yotqizilgan. Olimlarning fikricha bu udumlar ibtidoiy davrdan shakllanib, nikoh munosabatida bo'lmaganlarni jinsiy aloqaga kirmasligini oldini olishga har xil kasalliklarni oldini olishga mo'ljallangandir.

Oshqozon og'riganda asal, evkalipt shirasi, kastor yog'i, mustahkamlash uchun turli o'simliklardan tayyorlangan nastoyka (ichkilar) berishgan. Avstraliyaliklar meditsinasi ularning taraqqiyotiga mos xalq tajribasidan o'tib amalda sinalgan uslublarga asoslangani, tabiiy.

II. Bob. Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda noa`naviy dars usulidan foydalanish.

1. Okeaniya va Melaneziya xalqlarining aholisi, xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi va madaniyati.

Evropaliklar Okeaniyani dastlabki 1511 yoki 1512 yili ko'rishgan. Portugaliyaning A. Abreu va F. Serran ekspeditsiyasi Yangi Gvineya yonidan suzib o'tgan. Oradan o'n yil o'tib 1521 yili mashhur F. Magellan dunyo aylana sayohatida Tuamotu yonidan suzib o'tib Mariann orollariga kiruvchi, Guamga tushgan. Mariann orollari esa 1565 yildan Ispaniya mustamlakasi deb e'lon qilinadi. Portugaliyalik Georg de Menezes 1526 yili Malakkaga suzishi davomida kuchli shamol natijasida noma'lum yerga kelib qoladi. Menezes uni «Papua» (malay tilidan Tanah Pepua – «jingalak sochlilar yeri») deb nomlaydi. Bu esa Yangi Gvineya oroli edi.¹

XVI asrning oxiriga qadar ispaniyaliklar Markiz, Mariann, Karolin orollarini Filippin va yana ko'plab orollarni kashf qiladi. XVII asrning boshlaridan ispanlar davlati zaiflashib, Okeaniyaning bepayon suvlariga golland dengizchilari kirib keladi. Lemer va Skouten (1616) Tonga arxipelagidagi mayda orollarni, 1642 – 43 yillari Abel Tasman: Tasmaniya, Yangi Zelandiya, Tonga, Fidji orollarini kashf etadi. Okeaniya aholisi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni 1700 yili ruhoniy Gobening hozirda qirilib bitgan Mariann orolining tub aholisi **chamorro**lar haqidagi asaridan olishimiz mumkin.

XIX – asrning birinchi yarmida yevropaliklar va amerikaliklarning Okeaniyani mustamlaka qilish siyosatlari boshlandi. Bu borada inglizlar va gollandlar ayniqsa faol qatnashdilar. Yevropaliklardan Okeaniya xalqlarini etnologik tadqiq qilish uchun yuborilgan dastlabki olim N.N. Mikluxo-Maklay bo'lgan. Maklay umumiy muddati 2,5 yillik tadqiqotlari davomida (1871-72, 1876-77, 1883 yillar) asosan Yangi Gvineya papuaslarining hayotini o'rganadi. Maklay sayohat yillari: Angliya, Fransiya, Germaniya va AQSh,

¹ Пучков П. И. Население Океании. М. «Наука». 1967. стр – 43.

Okeaniyani istilo qilishni yakunlashadi. XIX asr oxirida Melaneziya va Mikroneziya aholisini tadqiq qilish ham boshlanadi. Missioner Robert Kodrington va nemis savdo kompaniyasi xizmatchisi R. Parkinsonlar Melaneziyaning dastlabki tadqiqotchilari hisoblanishadi. Kodringtonning 1891 yili Oksfordda nashr qilingan «Melaneziyaliklar» asarini bu sohadagi klassik asar deb aytish mumkin. Olim ilmiy doiralarni birinchi bo'lib melaneziyaliklarning oliy kuch – managa ishonishlari bilan tanishtirdi. U shuningdek melaneziyaliklarning tillarining dastlabki klassifikatsiyasini yaratdi. Umrining asosiy qismini Bismark arxipelagida o'tkazgan R. Parkinson o'zining ma'lumotlarga boy «Okeaniyada o'ttiz yil» kitobini nashr qiladi. Dastlabki Samoada (1860-1874) so'ng Melaneziyaning boshqa orollarida 48 yil missionerlik qilgan Jorj Brauning 1910 yili nashr qilingan «Melaneziyaliklar va polineziyaliklar» asari ham ko'plab etnologik ma'lumotlarga egadir. XIX asr oxiridan ekspeditsiya orqali tadqiqot ishlari keng tus oladi. Bu borada nemis olimlarining sa'y-harakatlari alohida o'rin tutadi. Nemislarning «Gazel» korveti 1874-76 yillari qator orollarni o'rganib, ularga Bismark nomi beriladi. Etnografik tadqiqotlar zimmasiga yuklatilgan leytenant Shtraux boy kolleksiya to'plab Berlin muzeyiga topshiradi. Shu kabi tadqiqotlarni 1884-85 yillari «Samoa» kemasi amalga oshiradi. Vrach **Avgustin Kremer** Mikroneziya, Melaneziya orollari aholisini kuzatishlarini yozib qoldirgan. Olim Yangi Irlandiya oroli aholisining niqoblar bilan bog'liq malangane udumini, juda bajurfa tasvirlaydi. Kremer 1908-10 yillari tashkil qilingan Melaneziya orollarining aholisini o'rganishda qatnashdi. Mustamlakachilik siyosati borasida nemislar bilan raqobatda bo'lgan inglizlar 1898 yili Torres ko'rfaziga katta ekspeditsiya uyushtirib, uning tarkibida Xeddon va Rivers kabi etnologlar bo'lgan. Ular Torres ko'rfazi tevaragidagi orollarda avstraliyaliklar va papuaslar madaniyati elementlari mujassamlashganini aniqlashdi. Etnologlarning Melaneziyaga qiziqishi birinchi jahon urushi arafasida oshib borgan. Xususan taniqli etnolog – sotsiolog **Rixard Turnvald** 1906-1909 yillari Bismark arxipelagi va Solomon orollarining shimolida

bo'lib aholi orasidagi: ibtidoiy huquq, oila – ijtimoiy turmush muammolarini o'rganib maxsus monografiya, maqolalar yozadi.¹ U 1908 yili Delaneziya orollari aholisini ham tadqiq qilib o'zining ikki tomli (The history of Melanesiya society» (1914) asarini yaratadi. Shveysariyalik Feleks Shpeyzer 1910 – 1922 yillari Melaneziyaning janubidagi qator orollarda bo'lib, o'zidan avvalgi tadqiqotchilar qoldirgan ma'lumotlardan foydalangan holda Yangi Gebrid va Banks orollari aholisining o'ziga xos madaniyatiga bag'ishlangan kapital asarini yaratadi. Asli polshalik bo'lgan ingliz etnologi Bronislav Malinovskiy ham I jahon urushi arafasida Okeaniyada bo'lib, bir necha oy Trobrian orollari aholisini o'rgangan. Malinovskiy okeaniyaliklarning o'ziga xos almashinuv **kula** bilan bog'liq urf-odatlar, irim, udumlari tizimini aniqlaydi. Olim ushbu ekspeditsiya bo'yicha qator asarlar, ilmiy maqolalar chop etadi.² Amerikalik etnolog **Raymond Firs** Melaneziyaga kiruvchi mustamlakachilar ta'sirida bo'lmagan kichkina Tikopiya oroli aholisini o'rganadi.

R. Firsning asaridan biri Yangi Zelandiyalik maorilarning va Polineziya aholisining iqtisodiy hayotiga bag'ishlangan. Melaneziyaning janubiy qismida Yangi Kaledoniya va Yangi Gebrid orollari aholisining yevropaliklar ta'sirida bo'lmasdan avvalgi hayotlari esa fransuz olimlari De-Rosi, Lemir va Glomonlar tomonidan tadqiq etilgan. Ular aholining ijtimoiy tuzumi va madaniyatlari haqida qiziqarli ma'lumotlar qoldirishgan.

Yangi Kaledoniyada 25 yil missionerlik qilgan **Moris Leyengardning** ishlarida ham aborigen aholi an'anaviy hayotiga oid qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. XX – asrning 20-30 yillarida ham qator ekspeditsiyalar uyushtirilgan. Ulardan eng ahamiyatlisi bu shubhasiz amerikalik etnologlar **Margarit Mid va Reo Forchunlarning** 1928-29 yillari Samoa orollarida bo'lib, aholining qarindoshlik tizimi, diniy tasavvurlari, bolalar tarbiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlaridir.

¹ Мирослав Стингл. Таинственная Полинезия. М. «Наука». 1991. стр-38.

² Роуз Ф. Аборигены Австралии. М. «Наука». 1981. стр – 47.

N.N. Mikluxo-Maklay Yangi Gvineyaning antropologiya va etnologiyasining o'rganishning pioneriy bo'lsa, uni lingvistik jihatdan tadqiq qilgan Fridrix Myuller 1876 yili birinchi marotaba aholini: melaneziya va papuas tillariga bo'ladi. Lekin Yangi Gvineya aholisining tillarini o'rganishda ingliz olimi **Sidney Raytning** xizmatlari beqiyosdir. U o'z tadqiqotlarini 1892 yildan umrining oxiriga 1939 yilga qadar davom ettirgan. Olim 1922 yilda papuas tillarini mustaqil, melaneziya tillariga kirmasligini tasdiqlaydi. Yangi Gvineya aholisini o'rganishda missionerlar: Chalmers, Xolms va boshqalar, davlat xizmatchilari Vilfred Biver kabi fidoyilarning ham xizmatlari kattadir. Papuasiyaning ichki hududlari g'arbiy qismida yashovchi past bo'yli **pigmeylarni** Raulning ochgan bo'lsa, Vollaston ular haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlar to'plagan. Keyinchalik Yangi Gvineya boshqa past bo'yli qabilalar ham topiladi. Xususan Robert Villiamson 1910 yili tog'li **mafulu** qabilalarini o'rganib ajoyib asarini yozib qoldiradi. Flay daryosi havzasida yashovchi kivai qabilasini Gunnar Landtman 1910-1912 yillari, banarollarni esa Rixard Turnvald 1913-1915 yillari tadqiq qilgan. Y. Gvineyaning g'arbidagi marindanim qabilasi etnolog Paul Virs tomonidan sinchkovlik bilan o'rganiladi. Eng sodda hayot kechiruvchi bu qabilalar ijtimoiy tuzumi va madaniyatida markaziy avstraliyalik qabilalariga o'xshash xususiyatlar ko'plab topilgan. Tadqiqotchilar orolning ichki hududlaridan XX asrning 40 yillariga qadar butunlay o'rganilmagan qabilalarni topib tadqiq qilishda davom etishgan.

Mahalliy tadqiqotchilar: 1890 yillari yangizelandiyalik tadqiqotchi **Persi Smit** polineziyaliklar genealogiyasi haqida ma'lumotlar to'play boshladi. Polineziyaliklar o'z xotiralarida genealogiyalarini o'nlab avlod avval o'tganlarini saqlaganlar. Markaiz orollaridagi qabilalardan birida 115 avlod nomi saqlangani aniqlangan. Smit 1898 yili «Gavaiki – **maorilarning** ilk vatani» nomli asarini chop etib polineziyaliklarning Okeaniyada yashashlari muddati haqidagi g'oyani olg'a surdi. Smit 1892 yil «Polineziya jamiyati»ga asos solib, bu tashkilot hozirga qadar Polineziyada etnologik tadqiqotlarni

o'tkazib, «Polineziya jamiyati jurnali»ni chop etadi. Jurnalning 1955 yilgacha 63 tomi chiqqani ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. Gonoluluda «Binop muzeyi» 1889 yili tashkil qilinib, Okeaniya arxipelaglarida muntazam ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun kompleks ekspeditsiyalar uyushtiradi. Gavayyada deyarlik 50 yil yashagan Charlz Bishop muzeyni xotini mahalliy qirollar Kameamealar sulolasining so'ngi vakilasi malika Pauaxi xotirasiga barpo etgan edi. Yangi Zelandiyalik maorilar haqida mahalliy tadqiqotchilarning qator monografiyalari XX asrning boshlarida nashr qilinadi. Ular qatorida: «Maori – polineziya qiyosiy lug'ati» (1891y), Elsdon Bestning 1924 yili chiqqan «Maori» fundamental asarlari mavjud. Polineziyaning XX asr o'rtalaridagi eng mashur tadqiqotchisi **Te Rangi Xiroa** (Piter Bak) bo'lgan. Uning onasi maorilardan otasi esa irlandiyalik dengizchi edi. Umrining so'ngiga 1950 yilga qadar Bishop muzeyi direktorii bo'lgan Bakning tadqiqotlari folklor va rivoyatlarni to'plashga bag'ishlangan.¹ U qator bebaho monografiyalar, maqolalar muallifi. Xiroa tadqiqotlarini umumiyLashtirib «Kunchiqar dengizchilari» nomli asar yozgan bo'lib, u bu asar dunyoning ko'pgina tillarida jumladan rus tilida nashr qilingan.

Okeaniyaliklarning kelib chiqishi haqida g'oyalar: Tinch okeani orollariga dastlab kelgan yevropalik dengizchilar u yerda yashayotgan zich aholini ko'rib albatta ularning kelib chiqishlari bilan qiziqishgan. Natijada dastlabki ilmiy ma'lumotlar bilan birlikda, ularni qoldirgan mualliflarning hech qanday asosga ega bo'lmagan, ko'pincha bir – biriga zid g'oyalarini ham uchratamiz. Fan taraqqiyoti seyekin - asta, muamoga oid faktli ma'lumotlarning ko'payib borishi bilan olimlarning g'oyalari ham asosli va ishonarli tus ola boradi. G'arb mamlakatlarida Okeaniya xalqlarining paydo bo'lishi diffuzion g'oya bilan izohlanadi. Uning davomi tarzida Frits Grebnerning «madaniyat xalqalari g'oyasi» yaratiladi. Grebnerdan keyin Okeaniya aholisining etnik tarkibini va madaniy qatlamlarini aniqlash vazifasiga ingliz olimi Rivers qo'l

¹ Пучков П. И. Этническая развитие Австралии М. «Наука». 1987. стр -76.

uradi. Rivers okeaniyaliklar tarkibidagi 4 ta etnik qatlamni ajratib, ulardan so'nggi 2 tasi bilan shug'ullana boshlaydi. Bu ikki guruhni u **kavi** va **betel** nomli narkotik moddasi mavjud o'simliklardan foydalanishiga qarab ajratadi. Kavini Melaneziyaning janubiy va sharqiy qismida, Polineziyada; betelni esa – Melaneziyaning shimoliy-g'arbiy hududlarida iste'mol qilishib, Riversning fikricha so'nggi ikki migratsiya to'liqini «kavi xalqi» ni Okeaniyaga keltirgan. Olimning fikricha ushbu emmigrantlar o'zlari bilan «qabila boshliqlari» institutini, uning asosi erkaklarning «maxfiy ittifoqlarini» keltirishgan. Qabila boshliqlarining kala suyagini e'zozlash, betel xalqi bilan; mayitini e'zozlash va saqlash esa «kavilar» tomonidan joriy etilgan. «Kailar», shuningdek o'zlari bilan quyosh va oyga sig'inishni ham keltirishgan. Okeaniyaning dastlabki ikki etnik qatlamini Rivers ularning qabrlariga qarab farqlaydi. Eng qadimgi aholi mayitni bor bo'yiga yotqizib ko'msa, keyingi aholi guruhlari marhumni o'tqazgan holda ko'mishgan. Barcha etnik guruhlarining kelib chiqishini Rivers Indoneziya bilan bog'laydi. Olimning shogirdlari Grafton Eliot Smit va Uilyam Perrilar ustozlaridan o'zishga harakat qilib o'z tadqiqotlarini arzeologik ma'lumotlarga asoslashadi. Eng qizig'i ular quyoshga sig'inishni, qabila boshliqlarini muqaddaslashtirish, jasadlarni mumiyolash, sug'orish dehqonchiligining tarqalishini qadimgi Misr hududi bilan bog'laydilar. Olimlarning fikricha qadimda Misrdan chiqqan «quyosh bolalari» hamma yerda quyoshga sig'inish va u bilan bog'liq irim – udumlarni tarqatganlar. Okeaniyadagi yuksak madaniyat asoschilari xuddi shu misrliklar to'liqini b o'lganligi, ularning g'oyalari asosi edi. Shveysariyalik olim Feliks Shpeyzur 1910 – 1949 yillar davomida Okeaniyaning etnik tarixi bilan muqim shug'ullanadi.¹ U o'z tadqiqotlariga antropologik va lingvistik ma'lumotlarni ham jalb qiladi. Shpeyzer g'oyasiga binoan avstralo-okeaniya havzasi bir necha to'liqinsimon aholi migratsiyalari guvohi bo'lgan. Ulardan eng qadimgisi **tasmaniyaliklardir**. Keyingi to'liqin avstraliyaliklar bo'lsa, ularning

¹ Малаховский К.В. Соломоновы острова. М. «Наука». 1981.стр – 75.

aralashuvidan uchinchi element Yangi Gvineya **papuaslari** shakllanadi. To'rtinchi to'lqin «turtqirrali» tosh boltalari mavjud Sharqiy Gvineyaning tog'lik aholisidir. Ularning barchasi «Avstraliyaliklar»dan avvalgi migrantlar bo'lishgan. Keyingi «protoavstroneziyaliklar» indoneziyaliklar va polineziyaliklar guruhlariga bo'linib, okeaniyaning boshqa orollariga tarqalgan. Shpeyzer sxemasi mohiyati, qisqacha aytganda ana shulardan iborat. Avstraliyaga aholi 40 ming yil avval, Tasmaniyaga taxminan 22 ming yil oldin kelib yashay boshlagan. Yangi Gvineyaga ham migrantlar Janubiy – Sharqiy Osiyodan deyarli 30 ming yil avval kelib, ular avstraloid irqiga oid bo'lgan. Keyinchalik Yangi Gvineyaga migrantlarning Yana bir necha to'lqini yetib keladi. Ulardan eng kattasi bundan 10 ming yil avval orolga o'zlari bilan silliqlangan bolta olib kelgan.

Bolta faqat ovda qo'llanilmasdan, u bilan daraxtlarning shox-shabbalari kesilib, ilk dehqonchilikka ham asos solinadi. Bu g'oya o'zining yakuniy tasdig'ini topsa, yangigvineyaliklar eng qadimgi dehqonchilik aholisidan biriga aylanadi.

Papuaslar ajdodlari qo'shni orollarga Bismark arxipelagiga, janubda Yangi Kaledoniyagacha tarqaladi. Okeaniyaga bo'lgan migratsiyaning Yana bir to'lqini arxipelaglarga bunday 5 ming yil avval yetib kelgan. Bu aholining tillari olimlarning fikricha avstroneziya til oilasiga mansub bo'lgan. Ular irqiy xususiyatlari bo'yicha janubiy mongoloidlar bo'lgani ehtimol. Migrantlar Yangi Gvineyaning shimoliy – sharqiy qismida yoki Bismark arxipelagining orollaridan birida yagona birlik sifatida yashay boshlaydi. Ularning tillarini olimlar oldokeaniya tillari deb ehtimol qilishadi, sababi u Okeaniyaning ko'pchilik avstroneziya tillariga asos bo'ladi. Migrantlarning o'ziga xos qurollari to'rt qirrali toshboltasi edi. Ko'chuvchilarning madaniyati neolitik tusda bo'lib, ular oddiy dehqonchilik bilan shug'ullanib, cho'chqa boqishgan. Tez orada oldokeaniya jamoasi tarqalib, uning «bo'laklari» Yangi Gvineya, Bismark arxipelagi, Solomon, Yangi Gebrid, Yangi Kaledoniya, Luayote orollariga tarqalgan. Keyinchalik Yangi kelganlar mahalliy papuaslar bilan

aralashib ketadi. Yangi Gebridning markaziy qismidagi migrantlarning bir bo'lagi ko'chishlar davomida papuaslar bilan deyarli aralashmasdan saqlanib qoladi. Xuddi shu jamoa keyinchalik «sharqiy Okeaniya» etnik va til jamoasiga asos bo'ladi. Uning o'ziga xos madaniyatida **lapita** tusidagi sopol buyumlarning mavjudligida kuzatiladi. Bundan 4 ming yil avval Ushbu jamoa tarqalib «sharqiy okeaniyaliklar» Yangi Gebridning shimoliy orollariga, Solomon orollarining janubiy – sharqiga, Fidji arxipelagi va boshqa orollarga tarqaladi. Keyingi bosqichlarda ular mahalliy qora tanlilar bilan aralashib ketsada, ba'zi hududlarda avtohton aholiga o'z tilini o'tqaza oladi. Ushbu jarayonlar Melaneziyada til, etnik, madaniy va antropologik jihatdan rang – baranglik vaziyatini ta'minlaydi. «Sharqiy okeaniyalik»larning kam aralashgan bir qismi Fidjidan m.av. 1200 yili Tongaga undan esa m.av. 1000 yili Samoa oroliga o'tishgan. Ming yillik tashqi aloqalarsiz hayot Ushbu aholida o'ziga xos Polineziya etnik jamiyatini shakllantirdi. Milodiy asr boshlarida polineziyaliklar Okeaniyaning ko'p sonli arxipelaglariga tarqala boshlaydi. Dastlab Samoadan Markiz orollariga, undan esa Sharqiy Polineziya va Yangi Zelandiyaning boshqa orollariga ham aholi tarqaladi.¹

Keyinchalik Samoadan G'arbiy Polineziya arxipelagi va Melaneziya, Mikroneziyaning mayda orollari ham aholiga ega bo'ladi. Keyingi asrlarda Polineziyaning turli orollari aholisi o'zaro aloqalarni saqlab qolishi, turli etnoslar madaniy yaqinligini ta'minlaydi. Polineziyaliklarning ilk etnik tarixiga oid Ushbu ma'lumotlar XX asrning 80 yillariga ta'luqlidir. Bundan bir necha o'n yil avval okeanistikada polineziyaliklarni Janubiy – Sharqiy Osiyoda kelib chiqqanligi haqidagi g'oya hukmron bo'lib: V. Gumbold, Te Rangi Xiroalar Polineziya tillarini Indoneziya tillari bilan yaqinligini, madaniy o'simliklar va uy hayvonlarining Janubiy – Sharqiy Osiyodan chiqqanligini ta'kidlagan. Norvegiyalik olim Tur Xayerdalning polineziyaliklarni amerikaliklardan kelib chiqqanligi g'oyasi tarafdorlari esa o'z nazariyalarini: **batat** ekish, toshdan

¹ Народы Австралии и Океании. Под. ред. С.А. Токарева. М. Изд. Академии наук. 1996. стр – 57.

yasalgan yirik haykallar, moddiy va ma'naviy madaniyatlardagi qator o'zshash xususiyatlar umumiylikiga asoslashadi. Bu g'oyani tasdiqlash maqsadida 1947 yili Xayerdal solda Perudan Tuamotu orollariga ekspeditsiya ham uyushtirdi. Bugungi kunda polineziyaliklarning amerikaliklar bilan aloqalari inkor etilmagan holda polineziyaliklar Polineziyada o'zligiga erishganligi tan olindi.

Arzeologik tadqiqotlar polineziyaliklarning jo'nash nuqtasi bundan 4 ming yil avval Xitoyning Janubiy – sharqida bo'lganini tasdiqladi. «Jannat orollariga» 2 yo'l orqali suzish: «Janubiy» yo'l Hindixitoydan Indoneziyaning: Sumatra, Yava, Sulavesi va boshqa orollari bo'ylab; «Shimoliy» yo'ldan Xitoydan dengiz orqali Filippinga, undan G'arbiy Mikroneziyadagi Palau va Yap orollariga o'tilgan.

Xitoyning janubiy – sharqida hozirgi polineziyaliklar ajdodlari faqat jismoniy xususiyatlarini emas, eng muhim bilimlarini ham egallashgan. Shu joyda, Osiyoda sopolni o'zlashtirganlar, ma'danlar bilan tanishganlar. Qayiqalar qurib ochiq dengizda suzishni o'rganganlar. Xeyrdal g'oyasining asosini fransuz Erik de Bishop, o'n yil ham o'tmasdan Taitidan solda dengizga chiqib Chilidagi Xuan Fernandes oroliga yetib kelib, yo'qqa chiqardi. Chexiyalik Eduard Ingrish esa Polineziyadan Amerikaga 2 marta solda suzib o'tadi. Tabiiy savol tug'iladi «Balki polineziyaliklar Janubiy Amerikaga o'z madaniyatlarini tarqatgandir». Olimlarning fikricha, madaniy aloqalar tub aholining turmushi va madaniyatiga ta'sir etmasdan qolmasdi.

Tur Xeyrdal jasoratidan hayratlanish bilan birgalikda chex etnologi Miroslav Stingl qadimgi rimliklarning quyidagi maqolini keltiradi «Amicus Plato, Seg magis Veritas!» - «Platon mening do'stim lekin haqiqat abzalroq!» Polineziyaliklar rivoyatlarida Sharqqa ko'phaftalik suzishlar, Yangi yerlarning kashf etilgani, lekin u yoqmaganidan vatanlariga qaytishgani haqida so'z boradi. Tur Xeyrdalning batat haqidagi g'oyasi to'g'ri bo'lishi ehtimol, lekin uni peruliklar emas, polineziyaliklarning o'zlari orolga olib kelgani haqiqatga yaqinroq.

2. Meloneziya xalqlarining aholisi, an'anaviy xo'jaligi turmush tarzi va diniy tasavvurlari.

Meloneziya Tinch okeanining janubiy – g'arbidagi Avstraliyani yoy shaklida o'ragan orollar, qit'aning baland tog'li qismlari bo'lib muzliklar erishi bilan orollar shaklini olgan. Meloneziya orollari xalqasi shimoliy – g'arbda Yangi Gvineya (Irian) (785 ming kv.km.,) boshlanib, u yer yuzidagi Grenlandiyadan keyingi ikkinchi oroldir. Meloneziya tarkibiga: Yangi Gvineyadan tashqari, Bismark arxipelagi, D. Antrkasto, Trobrian orollari, Luiziada arxipelagi, Solomon, Santa Kruus, Yangi Gebrid, Yangi Kaledoniya, Luayote, Fidji va Rotumu orollari kiradi. Ular Polineziyaning sharqiy qismidagi orollardan farqliroq ancha zich joylashgan. Orollar orasidagi masofa bir necha o'n kilometrdan oshmaydi va yuzlab kilometrda joylashgan orollar unchalik ko'p emas. Meloneziya orollari tabiati boy. To'lig'icha tropik zonada joylashgan orollar issiq va nam iqlimga egadir. Ko'pgina orollarning tog'li hududlari bo'lganidan ular qalin tropik o'rmonlar bilan qoplangan. Haybatli palmalar, bambuk, banan va h.k. tropik o'simliklar 200 – 300 metrgacha uzunlikdagi lianalar mavjud. Hayvonot olami nisbatan boy emas. Sut emizuvchilardan, faqat xaltalilar mavjud edi. Qushlar olami boy. Atrofdagi dengiz suvlarida baliqlar ham mo'ldir.

Meloneziyaning barcha orollarida qadimdan odamlar yashab kelgan. Antropologik jihatdan aholisi avstraloid irqiga mansub bo'lib ikkita tipga: **papuaslar va meloneziyaliklarga** bo'linadi. Ikkisi uchun ham terisining qoraligi, sochining jingalakligi umumiydir. Papuaslar yuzlarining nisbatan ingichka va burnining burgutsimonligi bilan ham ajralib turadi. Irqiy jihatdan yaqin bo'lgan meloneziyaliklarning tillari o'zaro o'xshamaydigan 2 ta guruhga, til oilasiga bo'linadi. Meloneziya tillari malayo-polineziya (avstroneziya) til oilasiga oid bo'lsa, papuas tillari hech qaysi til oilasiga kirmaydigan mustaqil tillardir. Yangi Gvineyaning 4 mln.dan ortiq aholisining 90% **papuaslar** bo'lib 700 ga yaqin etnik guruhlariga bo'linadi. Eng yirik til oilasi **transogvineya** tillarida 85%, sepik ramuda 8?, **torichelli** tillarida 7%

aholi gaplashadilar. Papuas etnoslarining eng yiriklari: **enga** 200 m, **chimbu** 180 m, **xagen** yoki **medlpa** – 130 mingdan ortiq, **kamapo** – 110 mingdan ko'proq aholiga ega.¹ Yangi Gvineyada yashovchi melaneziyaliklar 200 ming kishidan iborat. Meloneziyaning qolgan qismida 200 dan ortiq etnoslar yashaydi. Ulardan 90%ga yaqini avstroneziya tillarida (600 m. ko'proq) va 7 ming kishi papuas tillarida so'zlashadi. Eng yirik etnos Yangi Britaniya orolidagi **tolailar** 90 ming kishidan iborat. Meloneziya orollari aholisining xo'jaligi asosi – dehqonchilikdir. Tropik dehqonchilik xo'jaligida yer ildizli ekinlar yams va taro, ba'zida shirin kartofel yoki batot, shuningdek shakarqamish yetishtiriladi. Mevali daraxtlar: kokos palmasi, non daraxti, saga palmasi, bananning qishloq xo'jaligidagi o'rni ham muhimdir. Keyingi paytda kakao, manioka ekinlari ham keng tarqalmoqda. Melaneziya va Yangi Gvineyada daraxtlar kesilib, shox-shabbalari yondirilib dehqonchilik qilingan. N. N. Mikuxo – Maklay bu usulni quyidagicha tasvirlaydi. «Papuaslar ekin uchun yerni tanlab mayda butalar, kichik daraxtlarni kesishadi. Tez kunda qurigan shox – shabbalarga o't quyishadi. Maydonda qolgan katta daraxtlarning ildiz to'ngasini bir necha kun kuydirishadi yoki tosh boltalar yordamida kesib tashlaydilar»². Tozalangan yerni erkaklar uchi o'tkir tayoq bilan chuqur qilib ag'daradilar, ayol va bolalar esa tuproqni ezib maydalaydilar. Keyingi ekish, ekinlarni parvarishlash, yig'ib olish barcha – barcha yumushlar ayollar tomonidan bajariladi. Papuaslarning ekinzorlarni qishloqdan bir necha kilometr uzoqlikda joylashgan. Yamsni to'g'ri qator qilib ekishadi. Ekindan oldin yamsni 1 – 3 ta ko'zini alohida kesib yerda tayyorlangan chuqurchalarga ko'mishadi. **Yams** poyasi maxsus qadalgan tayoqlarga o'ralib o'sadi. Tropikda yil mavsumlari deyarli farq qilmaganidan ekilgan yams mevasi qazib olinganda uzunligi 2 metrgacha, og'irligi esa 30 kilogrammgacha bo'lgan nusxalari uchraydi.³ Hosilni maxsus omborxonada oylab saqlashadi. Yamsdan

¹ Пучков П. И. Этническая развитие Австралии М. «Наука». 1987. стр- 43.

² Миклухо – Маклай Н.Н. Собрание сочинений . 3-т. 1991. стр- 59.

³ Основы этнографии. Под. ред. С.А. Токарева. Учебник. М. Мысль. 1992. стр- 48.

farqliroq taro nam tuproqni yoqtiradi. Shuning uchun uni botqoqroq yerlarga ekishdan tashqari, sun'iy sug'orishdan ham keng foydalanadilar. Solomon orollarining o'rtalikda joylashganlarida, Yangi Gebridning shimolida, Kaledoniya, Santa – Kruus va Banks orollarida qadimdan sug'orish uchun ariqlar tortilgan bo'lib, ularning eng uzunlari yarim kilometrqa qadar bo'lgan. Yangi Gebridda tog' yonbag'irlarida terassa usulidan foydalanib dehqonchilik ham qilishgan. **Taro** ildiz mevasi ham yams kabi ekilib, uning ba'zilar pishganda 5-6 kilogrammgacha kattalikda bo'ladi. Xomligida zaharli bo'lgan taroni suvda pishirish yoki qovurish orqali iste'molga tayyorlashadi. Meloneziyaliklar yetishtirilgan ildiz mevalar asosan kraxmal va suvdan iboratligi uchun kam to'yimlidir. Bu hol tropik dehqonchiligining barcha hududlari uchun xosdir. Yer ildizli mevalar boshqali donlarga nisbatan kam quvvatli bo'lganidan kuniga har bir kishi 4 kg yams yoki taro yeyishiga to'g'ri keladi. Og'ir va katta hajmdagi hosilni yig'ib uyga keltirish esa ko'plab vaqt va kuchni talab etadi. O'g'itlardan foydalanmagani uchun melaneziyaliklar yerlari o'z kuchini tez yo'qotadi. Shuning uchun har 2 – 3 yilda bir necha oila birgalashib yangidan yer ochishgan. Bananni (Mussa) boshqa ekinlardan nisbatan oriqlagan yerga ekishgan. Ko'rinishidan banan daraxtga o'xshasada, aslida yirik ko'p yillik o'simlikdir. Uning sindirilgan ildizidan ko'paytirishadi. Bir necha oylik parvarishdan so'ng bananning katta barg'lari, begona o'tlarni o'sishiga yo'l bermay, SNG hech qanday parvarishsiz 5-6 yil ko'plab hosil beradi. Ba'zida banan navlarining pishgan bir dastasi 60 kilogrammgacha bo'ladi. Mevali daraxtlardan birinchi o'rinda kokos palmasi (cocos nucifera) bo'lib, u yirik orollarning markaziy qismida o'smaydi. Kokosni ekish qiyin bo'lmasada, hosilni 8 yil kutishga to'g'ri keladi. Yong'og'i oziq sifatida, yong'og'ining po'chog'i esa turli buyumlar yasash uchun, bargidan uylarni yopishda, tanasidan qurol – yarog', uy – joy yasashda foydalaniladi. Non daraxtining yilda 2 marta pishadigan yirik «go'shtli» mevasidan taomda foydalanilsa, tanasidan qayiq yasaladi. Meloneziyaliklar mehnat qurollari juda soda bo'lib, Maklayning yozishicha: 1)

Erkaklar uchun: udya – qattiq 2 metrgacha uchi o'tkirlangan tayoq 2) Udya sab, unchalik katta bo'lmagan ingichka yog'och bel, ayollar uchun – bo'lgan. Tropik zonada fasllarning bo'lmasligi natijasida mahalliy aholi doimo ishda mashg'ul bo'lgan. Ular bir tomonda ekish, boshqa joyda yerni tayyorlash, uchinchi joyda esa hosilni yig'ish bilan band bo'lishgan.

Baliqchilik va ov. Meloneziyaliklarda o'zining xo'jaligikdagi ahamiyati bo'yicha dehqonchilikdan keyin ikkinchi baliqchilik o'rinda turgan. Daryolar kam bo'lganidan baliqni dengizdan ovlashgan. Ovda to'r, bambukdan to'qilgan maxsus – vershlar (qafas), to'qilgan savatlardan, nayzadan, o'q – yoy – komondan, qarmoqlardan fodalanishgan. Qarmoqni toshbaqa po'sti yoki chiqanoqlardan tayyorlashgan. Tunda mash'ala bilan baliq ovlash keng tarqalgan. Melaneziyada baliq ovlash erkaklarning ishi bo'lib, ayollarni unga jalb etishmaydi. Dengiz toshbaqalarini ovlash jamoa tomonidan tashkil etilgan. Ovlaydigan hayvonlarning o'zi deyarlik bo'lmaganidan quruqlikda ov keng tarqalmagan. Nayza va kamon yordamida qushlarni ovlash mavjud bo'lib, unda qush go'shtidan tashqari pati ham keng foydalanilgan.

Uy hayvonlari: Bizning tushunchasizdagi chorvachilik meloneziyaliklarda bo'lmagan. Uy hayvonlaridan cho'chqa, it va tovuqlarni bilishgan xolos. Ularning barchasidan taomda foydalanishadi. Cho'chqa va itning tishlari zeb – ziynat buyumlari tayyorlashda ham ishlatilgan¹.

Olov olish va taom tayyorlash: Olovni ishqalash yordamida olishgan. Unda uzunligi 1 metrli yumshoq yog'och va uchi o'tkirlangan 20 santimetrli tayoqchadan foydalanilgan. Taxtani yerga qo'yishib oyoq bilan bosib, tayoqchani unga uzunasiga yuritib ishqalashdan yog'ochdan chiqqan kukunga, ma'lum muddatdan so'ng quruq xasni tutatib olov olingan. Melaneziyalik aborigenlar olov olish uchun 40 mekunddan 3 minutga qadar vaqt sarflashgan. Taomni ko'pincha ochiq olovda, yoki yer o'choqda tayyorlashgan. Suvda taom pishirish juda kam qo'llanilgan. Ilgari melaneziyaliklar ham

¹ Тур Хейердал. Деревний человек и океан. М. Мысль. 1982. стр- 71.

Shimoliy Amerikaindeyeslari kabi toshni qizdirib g'och idishga solib taom tayyorlashgan. Shu tarzda kokos suti qaynatilib, quyuqlashtirilgan. Sopol idishlar mavjud joyda ham shu usuldan foydalanishgan.

Qo'rg'onlar va uy – joylar: Melaneziyaliklar o'troq halqdir. Ko'chmanchi hayot tarzi xususiyatlari faqat Gazel orolida yashovchi – bayni qabilasi aholisida uchraydi xolos. Ular dehqonchilikka o'tgan bo'lsada doimiy yashash joylari bo'lmasdan, polizlar yaqinida yashab ko'chib turishgan. Melaneziyaliklar qo'rg'onlari 2 xil: qishloq va kichik ovul ko'rinishida bo'lgan. Ularning asosiy farqi uylarning sonida edi. Qishloqlarni dushmanlar hujumidan asrash uchun daraxt ekib yoki quralar bilan mustahkamlashgan. Yangi Britaniya orolining g'arbida qishloq atrofida o'tkazilgan butalardan faqat bir joyda kirishga joy qoldirilgan. **Matankor** qabilasi himoyalaniş qulay bo'lishi uchun o'z uylarini o'rmonda yoki qoyalar ostida qurishgan. Uylar deyarli barcha joylarda bir xil ashyodan, o'xshash qurilgan. Loyihasi to'g'ri burchakli uzun, ustunlar asosida baland 2 tomonli tom shaklida yopilgan. O'rtadagi 2 ustun ustida to'sin o'rnatilgan. Uylarning devori deyarli bo'lmagan yoki past ustunchalar ustidagi to'sin shaklida edi. Banan yoki palma barglaridan yopilgan tom yog'ingarchilikka chiqamli bo'lgan. Agar devorlar bo'lsa, qamishdan to'qilgan bo'yra shaklida yengil, yerga qoqilgan qoziqlar bilan mahkamlangan. Kirish joyi oldi tomonidan ko'pincha eshiksiz, ochiq bo'lgan. Eshikni ham bo'yra yoki palma yaproqlaridan yasashgan. Derazalar umuman bo'lmagan. Uyning o'rtasida o'choq joylashgan. Uy – jihozlari deyarli bo'lmagan. Aholi hayotining asosiy qismi ochiq havoda o'tan sababli uy kechasi uxlash uchun zarur bo'lgan, xolos. Turli orollarda uylarning umumiy xususiyatlari bilan birlikda o'ziga xos tomonlari ham mavjud. Ba'zi joylarda uyning poydevori toshdan qurilgan. Yovvoyi cho'chqalardan, yomg'ir suvlaridan saqlanish uchun Yangi Irlandiya orolida uyning tevaragida toshdan baland bo'lmagan to'sin qilishgan. Dengiz qirg'oqlarida ustunlar ustiga uy qurish keng tarqalgan. Bunday uylar ayniqsa Yangi Gvineyada, Melaneziyaning shimoliy – g'arbida ko'p qurilgan va

Janubiy – Sharqiy Osiyoga qadar tarqalgan. Ustunlar ustidagi uylar aholining qo'shni qabilalar hujumidan himoyalanişhiga ham mo'ljallangan. Polineiyadagi kabi ko'p bo'lmasada Melaneziyada ham doirasimon va tuxumsimon (oval) uylar ham qurilgan. Melaneziyaliklar uylari faqat ko'rinishi, rejasi bilan emas o'zining maqsadi bilan ham bir – biridan farqlangan. Oilalar uylaridan tashqari erkaklar uylari, ba'zida ayollar uylari ham qurilgan. Erkaklar uylari uzunligi va eni 40 X 12 metr, balandligi 8 metrgacha bo'lib, unda jangovor va ovdan olingan o'ljalari, udum – marosim anjomlari, turli bezaklar saqlangan. Banks va Yangi Gebrid orollarida erkaklar uylari – **gamal** deb nomlangan.¹

Transport: asosiy transport vositalari suvda harakatlanishga mo'ljallangan bo'lib, quruqlikda faqat piyoda yurilgan. Melaneziyaliklar qayiqlar yasash va dengizda suzishda polineziyaliklar bilan raqobatlasha olishmasada, bu borada yuksak taraqqiyotga erishganlar. Non daraxtidan o'yib yasalgan qayiq balansirli (autrigerli) bo'lgan. Melaneziyaliklardan, faqat fidjiliklar uzoq dengiz safarlariga chiqishgan, xolos. Suvda suzishda ham faqat dengiz qirg'og'ida yashovchi aholi ko'nikmasi bo'lgan. Quruqlik transporti bo'lmagani sababli qishloqlarni faqat odam yuradigan yo'llar birlashtirgan xolos.

Kiyim va taqinchoqlar: Melaneziyaliklarda tropik iqlim aholisi sifatida sovuqdan asranish uchun kiyimga ehtiyoji bo'lmagan. Sovuq kechalarni yoki yomg'irli kunlarni orolliklar o'z kulbalarida o'choq atrofida o'tkazganlar. Vujudga kelgan vaziyatda ularda kiyimsizlikdan uyalish hissi ham bo'lmagan. Shu sababdan meloneziyaliklarda kiyim kam yoki butunlay bo'lmagan. Lekin bu borada ham ma'lum o'ziga xos xususiyatlar uchraydi. Ba'zi orollarda erkaklar ham ayollar ham kiyimsiz bo'lishsada, ko'p joyda kiyimning ilk turi belbog'chalar ilgariidan taqilgan. Uning turlari: yubkacha, bog'ich, belbog' yoki fallokrift, peshband moslamasidan iborat bo'lgan. Meloneziyaning shimolida ayollar yomg'irdan saqlanish uchun yaproqlardan to'qilgan yopinchik –

¹ Тур Хейердал. Деревний человек и океан. М. Мысль. 1982. стр- 32.

kapyushon tikishgan va boshga kiyib erishgan. Ba'zi qabilalar, xususan **moanuslar** bayram – o'yinlar paytida belbog'chalar taqishib qolgan paytlarda kiyimsiz yurishgan. Meloneziyaliklarda kiyimsiz yurish madaniy qoloqlik belgisi bo'lmagan. Meloneziyaliklarning badan bezaklari kiyimlariga qaraganda xilma – xildir. Belbog'chalar va fallokriptlar ham ko'pincha bezak vazifasini bajargan. Ulardan tashqari meloneziyaliklar bayramlarda boshi va tanasida turli taqinchoqlar taqishgan. Keng tarqalgan taqinchoqlardan biri, bambukdan yasalgan chiroyli taroqlarni asosan erkaklar taqishgan. Qulog'ida katta sirg'a, burniga tayoqcha, bo'yniga marjonlar, qo'l va oyoqlariga uzuk va xalqalar taqish ham asosan eraklarga xos edi. Taqinchoqlar uchun ashyo chig'anoqlar, toshbaqa po'sti, turli hayvonlar tishlari, qush patlari, tasmalar, marjonlar, mevalar, bambuk bo'lakchalari va vahokazolar edi. Lekin meloneziyaliklar o'z qo'shnilari polineziyaliklar kabi gullar bilan bezanishmagan. Yana bir xususiyatli tomoni meloneziyaliklarda erkaklar bezanishsa, polineziyaliklarda taqinchoqlarni ayollar taqishgan. Badanni tatuirovka qilish qora tanli xalqlarda keng tarqalmagan. Tishlarni urib sindirish, kalla suyagini maxsus defarmatsiya qilish ham meloneziyaliklarda aytarlik kam uchraydi. Sochni parvarishlash juda soda, ayollarda murakkab soch turmaklashlar ko'p emas, ularning sochlari kalta, Taqinchoqlar esa faqat estetik talablarni qondirmasdan ijtimoiy belgi vazifasini ham o'tagan. Ularga qarab insonning yoshi, ijtimoiy o'rnini aniqlash mumkin bo'lgan. Ba'zi bezaklar diniy – sehrgarlik udumlariga xizmat qiladi.

Meloneziyaliklarning jitmioy tuzumi: urug' jamoalari, oila –nikoh munosabatlari. Erkaklarning maxfiy ittifoqlari. Adabiyotlarda Meloneziya aholisining ijtimoiy tuzumi haqida yagona fikr mavjud emas. Umrining 25 yilini meloneziyaliklar orasida o'tkazgan missioner Kodrington «Meloneziya orollarida ijtimoiy tuzum qabilachilikka asoslanmagan» deb xulosa qilgan edi. Kodrington qabila tashkiloti, qabila sarkorlari kengashi, saylangan yoki merosiy qabila boshqaruvi yo'qligini nazarda tutgani, ehtimol. Okeaniyada 48 yil yashagan yana bir missioner Jorj Braun Meloneziyada qabila nomlari

bo'lmagani, uning o'rnida qishloqlar nomlari ishlatilganini yozadi. Ushbu fikrlarga albatta tanqidiy yondashish lozim. Chunki yirik orollarda bir necha okruglar bo'lib, ularning aholisi o'z urf – odatlari, shevalari bilan farqlanadilar. Ularni mustaqil qabilalar sifatida olish ham mumkin, lekin haiqatan ham qabila nomlari ko'p hollarda geografik atamalar ekanligi aniqlangan. Shu bilan birgalikda bu muammo hamma yerda ham bir xil hal etilgan. Deb bo'lmaydi. Xususan Trobrian arxipelagidagi yirik Boyovo oroli: Kirivina, tilataula, Kuboma, Kulumata, Muba, Kaibvagina kabi maxsus oqsoqollar boshqaradigan okruglarga bo'linadi. Ular kelib chiqishi bo'yicha qabilalar nomi bo'lgani ehtimol. Yangi Gvineya papuaslarining ijtimoiy tuzumi ham o'ziga xos bo'lib, ularning ijtimoiy munosabatlari kam o'rganilgan, hamda murakkab tuzilishga egadir. Papuaslarda ham avstraliyaliklardagi kabi qabilalar ko'p hollarda ijtimoiy boshqaruv rolini emas, balki etnik jamiyat vazifasini o'taydi. Qabilalarni til va madaniyat birlashtirgan, lekin ularda boshqaruv tashkilotlari sarkorlari vujudga kelmagan edi. Papuaslarda urug' patriarxal ko'rinishida bo'lsada, Yangi Gvineyaning meloneziyalik aholisida ona urug'i boshqaruvi saqlanib qolgan. Bir necha urug'lar ittifoqqa birlashgan bo'lsada, ularni yuqorida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra qabila emas, fratriya deb atash to'g'riroq bo'ladi. Yevropaliklar kelishi arafasida eng yirik ijtimoiy tashkilot urug'lar birlashmasi hisoblangan. Yangi Gvineyadagi asosiy xo'jalik yacheykasi jamoadir. Jamoaning eng keng tarqalgan turi esa urug'chilik jamoasidir. Urug'da jaoma mulki ham mavjuddir. Jamoani o'zining shaxsiy xususiyatlari asosida, hurmatga sazovor shaxslar boshqargan. Papuaslar uruhchilik jamoasining asosiy xususiyati erkaklar, ularning singillari va qizlari bitta jamoadan bo'lishidir. Jamoada urug'dan chetdan keladiganlar faqat xotinlikka olinadigan boshqa urug' ayollari bo'lishgan. Yangi Gvineyada ko'p bo'lmasada geterogen jamoa – yirik oilalar boshqaruvi ham mavjud edi. Unda botqoqlar, qo'riqlar va hokazolar umumiy mulk bo'lsa, qayiqlar, poliz ekinlari yirik oilalarga tegishli bo'lgan. Yevropaliklar va indoneziyaliklar bilan iqtisodiy aloqalar natijasida papuastlarda jamoaning uchinchi turi –

qo'shnichilik jamoasi vujudga kelgan hamda bunday jamoalar asosan shaharlarga yaqin joylarda shakllangan. Yangi Britaniya orollarida qabilalar bo'lgan bo'lsada, lekin hozirga qadar ularning hammasining ham nomi aniqlanmagan. Orolning sharqiy qismida: **sulka, gaktei, tumuip, o – mengen, butam, taulil, bayning, nakanai, gunantuna** qabilalari yashaydi. Ularning ba'zilari papuas boshqalari meloneziya tillarida so'zlashgan. Solomon orollaridan eng yiriklari okruglarga bo'linib, ularning har birida o'z she'vasi va udumlari mavjud edi. Bugenvil orolining janubida papuas qabilalari: **telei (rugara), sibbe, nasion** va meloneziya qabilalari **torau, uruava, banoni** va boshqalar yashaydi. Yangi Kaledoniya va Fidjidagi ijtimoiy taraqqiyot darajasi yuqori bo'lgan qabila tuzumi gullab yashnagan. Yangi Keledoniyada 40 – 50 ta shevasiga, qabila sarkorlariga o'z hududiga ega qabilalar aholisi soni 500 dan 2000 tagacha qadar bo'lgan¹. Bu qabilalar o'zaro urushdib tursalarda, ularda o'zaro almashinuvlar ham mavjud bo'lgan. Ma'lum hududni egallagan Fidjidagi qabilalar sarkorlari kuchli hokimiyatga ega edilar. Fidji, maydoni (18,333 km.kv) 1643 yili Abel Tasman tomonidan kashf qilingan. XX asrning boshlaridan sandal daraxtiga talabning oshishi yevropaliklar bilan aloqalarni kuchaytiradi. Yevropaliklar kelishi arafasida urug'chilik jamiyati inqirozi boshlanib, keyinchalik savdo aloqalarining faollashuvi mulkiy tabaqalanishni kuchaytiradi. O'zaro urushlar kuchayib Mbau oroli hokimi Takombau 1852 yildan yevropaliklar tomonidan «Fidji qiroli» deb atala boshlanadi. Inglizlarning iqtisodiy siyosati tez orada Fidjidagi ekin maydonlarining katta qismini ularning qo'lga o'tishi bilan yakunlandi. Shakarqamish yetishtirish keng tus olib 187 yili Hindistondan dastlabki kontrakt shartnomasi bo'yicha yollangan ishchilar keltiriladi. Hozirda aholisi 715 mingdan ortiq, orol aholisi 1970 yili mustaqillikka erishgan. Poytaxti – Suva shahri. Yangi Kaledoniyaning (er maydoni 18,576 km.kv. ma'muriy markazi – Numea). Aholisi 154 ming (1983) Mahalliy meloneziyaliklar – kanaklar va fransuzlardan iborat. Yangi

¹ Основы этнографии. Под. ред. С.А. Токарева. Учебник. М. Мысль. 1992. стр – 75.

Kaledoniya orollari hozirga qadar Fransiyaning dengizorti hududlari hisoblanadi¹.

Urug' va qishloq jamoalari: Melaneziya qabilalari urug' va qishloq jamoalariga bo'lingan. Xususan Trobrian orollarida asosiy ijmtioy guruh qishloq jamoasidir. R. Malinovskiyning yozishicha «qishloq jamoalari o'z bog'larini parvarishlaydi, udum – marosimlarni amalga oshirishda, urush olib borishda, savdo ekspeditsiyalari uyushtirish maqsadida qayiqlarda birgalikda qatnashadi. Har bir qishloqning oqsoqoli bo'lib, u qabila sarkorlariga bo'ysungan. Trobrian orollarida ushbu xududiy qo'shnichilik jamoalari bilan birlikda urug'chilik jamoalari ham mavjud. Aholisi 4 ta urug'ga – kumilaga bo'linib, urug'ga oidlik onalar tomonidan aniqlanadi. Lekin kumilalar yirik bo'lib hududiy sochilgan holda yashaganligi sababli ularni uyushgan jamoa guruhi deb atash mushkil, shuning uchun R. Malinovskiy uni «subklan» deb nomlangan. Parkinsonning yozishicha, Admiralteystva orollaridagi moanus qabilasida XIX asr o'rtalarid. 14 ta totem nomlari bilan ataladigan ekzogam ona urug'i bo'lgan. Lekin xuddi shu qabilani XX asrning 30 yillari tadqiq qilgan M.Mid va R. Forchunlar ona urug'i o'rnida patrilokal urug'lar shakllanganini yozadilar. XX asrning boshlarida ham ona urug'i hukmronligi Yangi Irlandiya orolida saqlanib qolgan edi. Soloson orollarida esa ona urug'i bilan birlikda ba'zi joylarda ota urug'iga o'tish darajasidagi urug' jaomalari ham vujudga kelgan. Demak Meloneziyada ijtimoiy guruhlarining turli ko'rinishlari: 1) fratriya, 2) ona urug'i, 3) ona urug'idan ota urug'iga o'tish darajasidagi jamoalar, 4) ota urug'lari mavjud bo'lgan. Shu bilan birlikda XX asrning boshlarida jamoaning keyingi bosqichi – qishloq jamoalari ham shakllana boshlagan. Ushbu jamoa turlari Meloneziya orollaridagi jitmioy taraqqiyotning notekisligi belgisidir².

Oila va nikoh: Meloneziyaliklarning eng kichik ijtimoiy birligi juft, monogam oiladir. Lekin oila jamiyatning ishlab chiqarish va iqtisodiy

¹ Jabborov I. M. Jahon xalqlari etnogafiyasi. T. "O'qituvchi", 1985. 102-bet.

² Shu erda: 103-bet.

yacheykasi bo'lmasligi sababli, u unchalik mustahkam emasdir. Bunga misol tarzida Trobrian orollaridagi oilalarni ko'rsatish mumkin. Unda oila rishtalari ona urug'i munosabatlaridan keyingi pog'onada turadi. Farzandlar otalariga nisbatan onalari tomonidan tog'alariga yaqinroq bo'lib, ularning tarbiyasi va ma'suliyatida edi. Mulkka vorislik ham ona tomonidan – tog'adan jiyanga qolgan. Dalada ishlayotgan kishi oladigan hosilni oilasiga emas, turmushdagi singlisiga eltib bergan, o'zi esa xotini yoki uning aka – ukalari yetishtirgan mahsulotni iste'mol qiladi. Bu borada ko'chmanki o'zbeklardagi «tog'a yetti otadan ulug'» - matali esga tushishi tabiiy. Matalning mazmuni ko'chmanchi chorvadorlarda ham ona urug'i hukmronligi uzoq vaqt saqlanib qolganligidan darak beradi. Dobbu orolidagi aholida esa yevropdaagi oila tushunchasiga mos suzning uzi yo'q. Unga yaqin – susu atamasi onasining yaqinlarini nazarda tutib, otasini umuman hisobga olmagan. Shuning uchun missionerlar «Injil»ni mahalliy tilga tarjima qilganda maxsus so'z – pamilya (inglizcha – family)ni kiritishga majbur bo'lishgan. Melaneziyaliklar udumlari ko'p xotinlikka ruxsat bergan. Lekin faqat boylar yoki qabila sarkorlarida ikki yoki undan ko'p xotinga uylanish imkoniyati bo'lgan. Insonning jamiyatdagi tutgan o'rni qancha yuqori bo'lsa, uning xotini shunchalik ko'p bo'lgani. Yirik qabila boshliqlarida o'ntagacha, R. Kodringtonning ma'lumoti bo'yicha 30 – 60 tagacha xotini bor qabila boshliqlari ham bo'lgan. Yangi Gebridda xotin uchun «qalin» to'lovi cho'chqa bilan berilgan. Ko'proq orollarda 20 – 40 ba'zida, 100 – 150 ipga tizilgan chiqanoqlardan iborat «qalin» puli to'langan. Meloneziyada qiz olib qochib uylanish deyarlik uchramaydi. To'y marosimlari nisbatan soda bo'lib, uch qismga: sovchilik, to'lov berish va kelinni kuyovnikiga keltirishdan iborat. Sovchilikda yigitning otasi yoki onasi qizning otasinikiga kelib, undan rozilik so'raydi. Rozilik olingandan so'ng 2-3 kun o'tib cho'chqa yoki 10 – 12 ta to'qilgan bo'yra (pul o'rnida) keltiriladi, kelin balog'atga yetganidan keyingina to'lov miqdori uzil – kesil kelishib olinadi. Ba'zida qizning otasi ketirilgandan ko'proq «qalin» talab qilsada, kuyov tomon oldingi bergan narsalarini yo'qotmaslik uchun rozi bo'lishga majbur

bo'lgan. Kuni belgilanib, o'sha kuni kelinning yaqinlari savatlarga yams solib kuyovnikiga olib borishadi. Savatlar soni to'lovga berilgan cho'chqalar soniga teng bo'ladi. Kelinning qarindoshlari qaytib, uni to'yga hozirlay boshlaydilar. Kelin onasi pishirgan udumdagi pechenedan yeydi, so'ng bir savat yams ko'targan kelinni kuyovning uyiga olib boradilar. Kelin kelganidan so'ng kuyov tomon to'lovdagi cho'chqalarni tartib bilan kelinning yaqinlariga topshiradi. Yigit erkaklar bilan, kelin esa kuyov tomondagi ayollar bilan bazm uyushtiradi. Bazmdan so'ng kelinni «ayollar uyi»ga boshlab borishib, u yerda kelin bir oy turishi zarur bo'lgan.

Qarindoshlik munosabatlari: Meloneziyaliklarning qarindoshlik atamalarida o'tmish bo'lgan promiskuitet – guruhliy nikohning ta'siri hozirgacha yo'qotmagan. Muammoni batafsil o'rgangan Rivers unga urug'chilik ekzogamiyasi deb nom bergan. Meloneziyaliklarda bobo va buvi, nevara atamaları bir so'z bilan: Rova orolida – **popo**, Xiv orolida – **pupu** deb atalgan. Bobo, buvi, nevaralarni boshqa – boshqa nom bilan ataydigan orollar ham bo'lgan. Otalari avlodidagi, otasi, aka – ukalari bir xil atama bilan chaqirilsa, onasining aka – ukalari tog'alari uchun maxsus atama ishlatiladi. Masalan, Mota orolida otasi va amakisi – **tamai** tog'asi esa – **marau**i deb nomlashgan. Jiyanlar ham turlicha ataladi, erkak ukasining, ayollar o'z singillari bolalarini o'z bolalari kabi nomlashadi. Buning aksi erkak singlisining, ayol akasining bolalarini boshqa maxsus atama bilan ataydi. Jumladan, Malaita orolidagi shevalarning birida erkak o'zi va ukasining bolalarini mvela, singlisi bolalarini – **ko**, ayol esa bolalari va singillarini **mvela**, akasining bolalarini esa – **aiya** deb nomlagan. Er va xotinni anglatuvchi atamalarning deyarli barcha lahjalarida mavjudligi esa Meloneziyada monogam oila mustahkam ko'rinishda bo'lganidan darak beradi.

Oila udumlari: Erkak va ayollarning ham «qochishi» hamda yaqinlariga nisbatan cheklanishlari meloneziyaliklar jamiyatida ham mavjud. Deyarli hamma yerda qanona va kuyov bir – biridan «qochadi». Ba'zi joylarda

qaynotaning ismini aytish yoki uning hamiyatiga tegadigan so'zlarni gapirish butunlay ta'qiqlangan. Kelin uchun ham qaynotasiga nisbatan ta'qiqlar bo'lgan. Bu kabi udumlar dunyoning boshqa joylarida ham uchrab turadi. O'ziga xos udum Banks orollarida bo'lib unda ayolning ukasi va erkakning bir – birlari bilan gaplashib yoki hazillashishi ham mumkin emas edi. O'zaro «qochuv» amakivachcha va hatto aka va singillar orasida ham uchraydi. San – Kristobal, Savo, Aoba, Yangi Kaledoniya orollari aholisida aka – singillarning hazillashishi yoki suhbatlari chog'ida erotikaga oid mavzular bo'lishi ta'qiqlangan¹

Erkaklar maxfiy ittifoqlari: Meloneziyaliklarning an'anaviy ijtimoiy hokimiyati asosan ko'rinishi qabila sarkorlari hokimiyatidir. Yana bir hokimiyatning turi sifatida erkaklar maxfiy ittifoqlarini ko'rsatish mumkin. Bu tashkilot erkaklar uylaridan o'sib chiqqan. Erkaklar uylari esa o'z navbatida matriarxatdan partiarxatga o'tish bosqichi uchun xususiyatlidir. Meloneziyaning shimoliy – g'arbiy qismidan boshqa deyarlik barcha hududlarda erkaklar uylari bo'lgan. Adabiyotlarda Gazel va Gersog Yorkskiy orollaridagi «Ingiyet» va «Duk – Duk», shuningdek, Banks orolidagi Sukve va Tamma – Te, Yangi Gebridda Sukve yoki Maki ittifoqlari keng ta'riflangan. Xususan Ingiyet ittifoqini boy, e'tiborli kishi boshqargan. Ittifoqqa kirish badali 100 shoda chig'anoqli pul hisobida olingan. Ittifoqda afsungarlik bilan shug'ullanilib, uning sirlarini faqat a'zolari bilganidan qolgan aholi itoatda tutilgan. Dahshatga tushgan oddiy aholi ularga so'zsiz bo'ysunishgan. Yashirin ittifoq a'zolari sud qilish, jazolash, zaarlab o'ldirish kabi tadbirlarni qo'llashgan. Bu borada Duk – Duk ittifoqi ba'zida qo'pol bosqinchilik tarzida harakat qilgan. Tadqiqotchilarning fikricha Duk – Duk XIX asrda shakllangan bo'lib, unga kirmoqchi bo'lganlar a'zolik badali to'lashdan tashqari murakkab udumlar va sinovlardan o'tkazilgan. A'zolikka kattalar ham, bolalar ham qabul qilingan. Maxfiy ittifoq a'zolari o'zlarining niqoblari, barglardan to'qilgan

¹ Salimov T.U. Avstraliya va Okeaniya xalqlari. (O'quv-uslubiy qo'llanma). T. O'z. MU. 2003. str – 81.

plashlari, marosim raqslari bilan boshqalardan farqlangan. Erkaklar boshlariga uchli niqob kiyganlar. O'rmonda faqat ittifoq a'zolari ishtirokida har yili 1 – 2 oy davomida udum – marosimlari o'tkazib turilgan – taraiu. Ushbu maydonga ittifoqqa a'zo bo'lmaganlar bilan – bilmasdan kelib qolsalar katta jarima to'laganlar. Ittifoq a'zolari vaqti – vaqti bilan qishloqqa tashriflari chog'ida aholini, ayniqsa ayollarni qo'rqitib turli narsalar, pul talab qilishgan. Duk – Duk ittifoqiga nisbatan har qanday hurmatsizlik munosabati jarima bilan tugagan. Marosim so'ngida niqoblar yo'qotilib Duk – Duk «o'lgan» keyingi yili esa yangidan «tug'ilish» Yangi niqoblar ostida ro'y bergan.

Kannibalizm: Meloneziyaliklar uruq – jamoalari va qabilalari orasida o'tmishdagi urushlar, qurolli to'qnashuvlar, kannibalizmning bo'lishiga olib kelgan. Lekin Trobrian va unga qo'shni orollarda, Santa Kruus, Torres va Banks orollarida kannibalizm bo'lmagan. Bu orollar aholisi faqat odam go'shti yemasligi bilan emas, balki bu udumga jirkanch bilan qarashlari ham kuzatilgan. Boshqa joylarda kannibalizmga oddiy hol sifatida qaralgan. Xususan Gazel yarm orolida, Yangi Irlandiya va boshqalarda jangda o'ldirilgan dushmanlari go'shti yeyilsa, qolganlarida hatto bunday cheklanishlar ham bo'lmagan. Yangi Gebridada odam go'shti yeyish diniy afsungarlik udumlari bilan izohlangan.¹ Endokannibalizm o'z qabiladoshlarini yeyish Meloneziyada uchramaydi. Mulkiy tabaqalanish boshlangan Tapia, Yangi Kaledoniya orollarida odam go'shti yeyish zodagonlar va qabila sarkorlari imtiyoziga aylangan edi. XIX asrdan yevropaliklar kelib, o'tochar qurollarning tarqalishi Meloneziyada, ayniqsa Fidji orolida urushlarni, shu asosda kannibalizmni ham kuchaytiradi. Okeaniyada bugunga kelib kannibalizmning sarqitlari ham qolmagan, albatta.

Diniy tasavvurlar, Dafn tartiblari: Meloneziyaliklar dinlari, ijtmoyi tuzumlari kabi rang – barangdir. Meloneziyaliklar dinida totemistik tasavvurlar bilan birlikda, urug' – jamoa qulti, qabila boshlig'ini ilohiylashtirishini kuzatish

¹ Salimov T.U. Avstraliya va Okeaniya xalqlari. (O`quv-uslubiy qo`llanma). T. O`z. MU. 2003. crp –105.

mumkin. Xuddi masxusus ruhoniylar kastasi shakllanmagan bo'lsada, diniy – sehrgarlik udumlari, arvohlarni chaqiruvchilar, issiq – sovuq qiladiganlar, shamanlar tomonidan bajarilgan. Ba'zi orollarda esa ayol – afsungarlar alohida o'rin tutishgan. Sitbo orolida tabiblar ixtisoslashib: epilepsiyani, revmatizmni, terlamani, jami 12 ta kasallikni da'volayqigan tabib va bolbinlar bo'lib, ularga xizmatlari uchun davolanuvchilar haq ham to'lashgan. Orolliklar ayniqsa, o'zimizdagi jin, alvasti, dev tushunchalariga to'g'ri keladigan «uchar sehrgarlar»dan qo'rqadilar. Mahalliy aholi tasavvuricha bunday sehrgarlar «yoyova» dengizda halok bo'lganlarni yeganlar. O'ljalarni dengizda kemalarni cho'kish paytida havodan kelib ovlaganlar. Umuman Trobrian orollarida afsungarlikning ko'p turlari bilan ayollar shug'ullanadi. Meloneziyaning boshqa orollarida afsungarlar bilan birgalikda arvohlar bilan so'zlashuvchilar ham ko'zga ko'rinarli o'rin tutadi. Ba'zi joylarda afsungarlar arvohlar bilan muloqotni qo'shib ham olib borishadi. Masalan, San Kristobal orolida shaman – tabib kasalni davolashda uning tanasini tashlab chiqqan «jonini» qaytarish uchun o'zini jazava holatiga keltiradi. Solomon, Banks, Yangi Gebrid, Yangi Kaledoniya orollarida ijtimoiy munosabatlar nisbatan yuqori rivojlanib kohinlar toifasi kasblari avloddan – avlodga o'ta boshlagan.¹ Fidji orollarida - **mbete – kohinlarning** ahamiyati katta bo'lib, har bir qabila sarkorining o'z kohini bor edi. Aholi orasida kohin yuksak obro'ga ega bo'lib, bu holatdan o'zi va qabila sarkorining maqsadlarida foydalangan. Manna – g'oyasi melaneziyaliklar dinlari uchun xarakterlidir. Manna haqida dastlab missioner Kadrington 1878 yili Maks Myullerga yozgan xatida so'z yuritgan edi. «Meloneziyaliklar dinida ko'rinmas oliy kuchga ishonish mavjud bo'lib, u «**manna**» deyilgan.² Meloneziyaliklarning barcha toat – ibodatlari qurbonliklari manani o'ziga qaratish, ko'nglini olish, undan foydalanishga qaratilgan». Meloneziyaliklarda hatto afsungarlik ham mananing kuchidan o'z maqsadida foydalanishga yo'naltirilgan edi. Afsungarlikning ziyon – zahmat yetkazuvchi,

¹ Основы этнографии. Под. ред. С.А. Токарева. Учебник. М. Мысль. 1992. стр – 96.

² Австралия и Океания. История, экономика, этнография. М, «Наука». 1978. стр – 98.

sevgi (issiq – sovuq) davolash kabi turlari bo'lib, xususan ziyondan himoyalaniş afsungarligida turli usullardan foydalanilgan. Ular ichida tumorlar, turli bezaklarning asl mohiyati asranish ekanligi shubhasiz. Meloneziyaliklar orasida harbiy mojarolar tez – tez bo'lib turganidan harbiy afsungarlik ham alohida ahamiyat kasb etgan. Uning eng ko'p tarqalgan turi badan va yuzni maxsus **tatuirovka** qilishdan iborat edi. Meloneziyaliklarda xo'jalik faoliyati: dehqonchilik, baliqchilik, qayiq yasash bilan bog'liq afsungarlik turlari ham mavjud bo'lgan. Nihoyat ob – havoda (meteorologiyada) ham afsungarlik bo'lib meloneziyaliklarda maxsus afsungarlar; yomg'ir, shamol nurini «chaqirishga» ixtisoslashgan. Har qanday udumlarning ajralmas qismi sehgarning duolari hisoblangan. Uni ba'zida pichirlab, boshqa hollarda ashula tarzida baralla aytishgan. Yomg'ir chaqirish uchun Avropa (Maeva) orolidan bo'lgan sehgari bir bog'ich maxsus barglarni toshning yorig'iga qo'yib, ustidan maydalab ezilgan kava o'simligi shoxini, unga sehrli yosin toshini qo'yib duolar bilan o'z faoliyatini davom ettiradi. Afsungarlikka yaqin diniy tasavvurlardan biri **mantika** – fol ochish yoki oldindan aytib berish, turli belgilar asosida, qushning tovushi, osmon jismlarini joylashishiga qarab, u yoki bu voqealarni sharhlagan. Bunday afsungarlik turini dunyoning deyarlik barcha xalqlarida uchratish mumkin.¹

Totemizm: Meloneziyaliklar hayotida totemistik tasavvurlar aytarliq katta o'rin tutmagan. Udumlardan eng yaxshi saqlangani totem hayvonni o'ldirish va iste'mol qilishga ta'qiqdir. Bu kabi ta'qiq Yangi Irlandiya, Gersoy Korkskiy, Yangi Britaniya, Solomon orollarining ba'zilarida saqlanib qolgan. Bunday farqliroq meloneziyaliklar hayotida animistik tasavvurlar muhim o'rin egallagan. Ularning tushunchasicha odamning joniy uni vaqtinchalik tashlab ketib, yana qaytib kelishi mumkin bo'lgan. Motlav orolida jonni – **talegi** deb nomlashib, uni soya yoki aks – tasvir sifatida tushinishgan. O'lganlarning joni

¹ Народы Австралии и Океании. Под. ред. С.А. Токарева. М. Изд. Академии наук. 1996. стр –94.

haqida tasavvur deyarlik barcha orollarad muhim o'rin tutgan va zarar yetkazuvchi kuch sifatida tushunilgan.

Dafn tartiblari: Dafn tartiblari o'lganlarning «ruhi» mavjudligi tasavvurlari bilan uzviy bog'liqdir. Uning xilma – xilligi esa hududiy va ijtimoiy negizga ham egadir.

Meloneziyaliklarda jasadni tashlab ketish, o'zi bilan olib yurish, endokannibalizm uchramaydi. Lekin boshqa, ba'zida murakkab ko'mish marosimlarini ko'plab kuzatish mumkin. Mayitga ikki tomonlama munosabat, bir jihatdan jasaddan tezroq foriq bo'lish, qo'rquv, ikkinchi tomondan esa unga ko'nikma, o'zida uzoqlashtirmaslikka harakat qilingan. San – Kristobal orolida tadqiqotlar olib borgan Foks 21 xil dafn tartiblarini aniqlagan. Ular orasida eng soddasi suvga ko'mishdir. Xususan Yangi Irlandiya orolida jasadni dengizga tashlash, ko'mishga nisbatan e'zozliroq hisoblanib, ba'zi joylarda qabila sarkorlari imtiyozi edi. Siarada buning aksi oddiy kishilar tanalari suvga cho'ktirilgan. Yangi Gebrid arxipelagida vafot etganlar oyog'iga tosh bog'lab cho'ktirish janubiy orollarning deyarlik barchasida mavjud. Mayitni qayiqda qoldirish yoki qayiq bilan birga cho'ktirish hollari ham kuzatiladi. Yuqoridagilardan farqliroq ochiq havoda ko'mish Meloneziyada keng tarqalmagan. Mayitni dudlab mo'miyolash, so'ngra kulbaning ichiga yoki hovlida ko'mish hollari ham tadqiqotchilar tomonidan qayd qilingan. Meloneziyaning janubidagi Ambrim, Eromanga, tana, Maare, Yangi Kaledoniya orollarida g'orga ko'mish usuli ham qo'llanilgan.¹ Mayitni yerga ko'mish albatta eng keng tarqalgan usul bo'lib u deyarlik barcha hududlarda mavjud edi. Mayning qabilasida jasadni chuqurda qoldirib, ustiga tuproq tortishmagan. Lekin mayitni, o'tirgan, yotgan va hatto tik holda ko'mish asosiy dafn tartibidir. Tana, Eromanga orollarida qabrning ichidan yoniga qarab lahat ham qazishgan. Shu bilan birlikda Meloneziyaning barcha orollarida mayitni kulbaning ichiga yoki yaqinida dafn etish ham keng

¹ Основы этнографии. Под. ред. С.А. Токарева. Учебник. М. Мысль. 1992. стр – 124.

qo'llaniladi. Tabiiy, har bir dafn uslubi ma'lum ma'noni anglatishi lozim. Tanani dengizga tashlash olimlarning fikricha mayitni qadim vatanlari Gavaikiga «dengiz ortiga» jo'natish deb tushunilsa, g'orga ko'mish esa ularning ko'pligi va yerga ko'mishning qiyinligi bilan izohlangan. Meloneziyaliklar «narigi Dune» tushunchasi yer osti bilan bog'liq bo'lgan. Havoda ko'mish, daydichilik hayoti davri aks ta'siri bo'lsa, mayitni kuydirish sababi hozirgacha aniqlanmagan. Xulosa qilib aytiladigan bo'lsa, meloneziyaliklar dafn tartiblari: ularning moddiy yashash sharoitlari va ijtimoiy tabaqalanishi, tarixiy an'analari «narigi dunyoga» ishonchlari bilan bog'liq holda shakllangan.

Meloneziyaliklar ma'naviy madaniyatlari. Afsonalar, badiiy madaniyat, musiqa, ilmiy bilimlar. Afsona va rivoyatlar meloneziyaliklar ma'naviy madaniyatining ajralmas qismidir. Afsonalarning katta qismi diniy tasavvurlar bilan uzviy bog'liq. Bunday afsonalar Trobrian orolida ayniqsa ko'p bo'lib, ular udum – marosimlar, urf – odatlarning paydo bo'lishini izohlab bergan. Qahramonlik va ba'zi qahramonlarning sarguzashtlari haqidagi afsonalar ham ko'p bo'lib, ularda ko'pincha egizaklar siymosi haqida so'z boradi. Bosh qahramonlardan biri aqlli, chaqqon, adolatli, ikkinchisi esa axmoq, qo'pol va ko'pincha alamzada bo'lganini kuzatish mumkin. Afsonalarda aqlli yigit To – Kabinana, ahmog'i – Takervuvu nomi bilan uchraydi. Meloneziyaliklar afsonalari va dinlarida quyosh va oy aksincha muhim o'rin egallamaydi. Quyosh hamda oyga sig'inish ham ularda keng tarqalmagan. Ushbu osmon jismlari aksi tushirilgan niqoblardan esa faqat marosim raqslarida, bayramlarda foydalanishgan xolos. Meloneziyaliklar dinlarida urug'chilik jamoasi tuzumi, uning inqirozi sharoitidagi tasavvurlar, udumlar ham o'z aksini topgan.

Badiiy madaniyat: Meloneziyaliklar qurollarini turli buyumlarni o'yib yoki bo'yoq bilan rasmlar, suratlar bilan bezashgan. Solomon orollarida qayiq va eshkaklar ham turli chizmalar bilan bezatilgan. Badiiy uymakorlikdan, idishlarni, qoshiq, cho'michlar, bolta dastasi, nog'oralar va h.k.lar bezatilgan.

Bambukdan yasalgan buyumlarga o'ymakor naqlardan tashqari, kuydirib rasmlar ham solingan. Odamlarning o'zi ham badanini tatuirovka bilan bezaganlar. Meloneziyaliklarda yog'ochda o'yib yasalgan din bilan bog'liq turli haykalchalar ham mavjud bo'lgan. Buyumlarni o'ymakor naqshlar bilan bezashni har qanday erkak va ayollar bajarsa: bayram va marosimlar uchun niqoblar, o'yin taxtachalari, ajdodlar, totemlar tasvirini maxsus o'ymakor hunarmand va rassomlar tayyorlashgan. Badiiy hunarmandchilik sirlari va u bilan bog'liq irim, marosimlar sir tutilib otadan farzandga o'tib kelgan. Solinadigan naqshlar ichida ko'proq odamlar tasviri, so'ng turli qushlar va baliq suratlari bo'lgan. Suratlar asosan stilistik tarzda ishlangan.

Musiq: Musiqa asboblarining ko'pchiligi puflash va urib chalik uchun mo'ljallangan. Do'mbira qum soati ko'rinishida yasalgan. Urib chalinadigan asboblardan shaqilodoqlar ham bo'lgan. Puflab chaladigan asboblar ichida chig'anoqlardan yasalgan fleyta, Meloneziyaning turli hududlarida mavjud. O'yinlar musiqa bilan uzviy bog'liqdir. Orolliklar raqslari musiqadan tashqari, qo'shiq jo'rligida o'tkaziladi. Raqs va o'yinlar bayramlarning ajralmas qismidir. Raqs va tomoshalar kunduzi, ko'proq kechki paytlarda uyushtiriladi. Raqslar asosan erkaklar mashg'uloti bo'lib ayollar maxsus maydondagi o'yinlarni chetdan tomosha qilishgan. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha meloneziyaliklar ayollar o'yinlari unchalik qiziqarli emas. Yangi Irlandiya orolida «totem» o'yini bo'lib ularning ishtirokchilari o'z raqslarida totem hayvonlari harakatlarini namoyon etishadi. Oddiy o'yin, raqsdagilarning oyoq, qo'l, tana bilan maxsus maydonchada ritmik harakatlaridan iboratdir. Katta o'yinlarda yuzlab kishi qatnashib, ularning oyoq harakatlaridan yer larzaga kelgan. Niqob, rang – barang kiyimlar, maxsus raqs tayoqlari, taxtachalar, eshkak, bolta va shaqildoqlar ovozi qo'shilib, ajoyib manzarani yaratgan.

Ilmiy bilimlar: Meloneziyaliklar atrof – muhit, tabiat haqida anchagina ma'lumotlarga ega bo'lib, undan qishloq xo'jaligi yumushlarida keng foydalanishgan. Ularning o'simliklar turi va navlari haqidagi bilimlari kengligi tadqiqotchilarni ham hayratga solgan. Kremerning xabar berishicha Yangi

Irlandiyada ayollar 220 xil taro, 10 xil yams, 14 xil non daraxti va 52 xil bananni ajrata bilishgan.¹ Bunga o'xshash ma'lumotlar boshqa orollardan ham olingan.

Meloneziyaliklarning xalq **meditsinasi** borasida to'plangan bilimlari ham diqqatga sazavordir. Kasallarni davolashda ratsional usullarga afsungarlik qo'shib olib borilgan. Xususan Amaliy tibbiyotga: uqalash, qon chiqarish, har xil dorivor o'tlardan suyuq ichimliklar tayyorlab ichirish kiradi. Meloneziyalik tabiblar inson tanasini, Jumladan ichki organlarini yaxshi bilganlar. Eng ajablanarlisi, melaneziyaliklar va ayniqsa Bismark oroli tabiblarining jarrohlik muolajalari o'tkazganligidir. Jarrohlar hatto kala suyagini trepanatsiya qilishni bilganlar. Bu murakkab muolajani amalda kuzatgan Parkinsonning yozishicha operatsiyani peshonadan yaralanganda qilingan². Chakka suyagi jarohatlangan taqdirda jarrohlik muolajasi o'tkazilmagan. Skalpel o'rnida obsidiandan tayyorlangan asbob, akulaning Tish suyagi ishlatilgan. Yaradagi suyuq siniqlari olib tashlangandan so'ng uni atrofii tekislanib, daraxt ildizidan yasalgan gazlama malya yoki banan bargi bilan yopilib, yuvib bog'lab qo'yishgan. Parkinsonning yozishicha ko'pchilik hollarda bemor tuzalib ketgan. Mahalliy tabiblar suyak singanda ham mahorat bilan taxtakachlar bog'lab davolashgan.

Arxipelagning boshqa orollari haqida faqat dengiz qirg'og'i ag'olisini qisman tasavvurga ega bo'lgan. J. Kuk sayohatlari paytida Fate oroli aholisi Yangi Gebridning janubidagi o'zlaridan bir necha o'n kilometr uzoqlikdagi orollarni bilishmagani ham shundan dalolat beradi. Umuman, meloneziyaliklarning geografik bilimlari qo'shni Polineziyaliklarnikiga nisbatan tor bo'lgan. Meloneziya xalq og'zaki ijodida tarixiy rivoyatlari ham unchalik ko'p emas. Ba`zida bilish yoki xotirani tiklash uchun jazava bilan xudoning roziligini so`rashgan.

¹ Основы этнографии. Под. ред. С.А. Токарева. Учебник. М. Мысль. 1992. стр – 125

² Народы Австралии и Океании. Под. ред. С.А. Токарева. М. Изд. Академии наук. 1996. стр – 93.

3. Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarish erkin, mustaqil fikrlovchi, ayni paytda mas'uliyatli shaxsning shakllanishini ta'minlaydi. Barkamol inson shakllanish esa bevosita uzuluksiz ta'lim jarayonida amalga oshadi. Shuning uchun ham uzluksiz ta'limni rivojlantirish milliy dasturda belgilangan eng asosiy vazifalardan biri bo'lib, bilim va yuksak intellektning nufuzi ulkanligidan dalolatdir»¹.

Tarix o'qitishda o'quvchilarning amaliy bilim faoliyati sinf mashg'ulotlari bilan bog'lab olib boriladi. Sinfdagi mashg'ulotlarda olingan bilim va malakalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini to'ldiradi. Tarix o'qitish tajribasi ta'limning hamma bosqichlarda ham o'quvchilarning mustaqil ishlashlari mumkinligini ko'rsatadi. O'qitish uslublari o'qituvchining ish usullaridangina iborat bo'lmay, balki bu usullar o'quvchining ish uslublari ham o'z ichiga oladi. Ularning mulohaza yuritish doirasini kengaytiradi, o'quv motivlarini yuzaga keltiradi. Voqealikni bilishga faollik uyg'otadi. O'zini - o'zi boshqarishga, mustaqil fikr yuritishga, puxta zamin hozirlaydi.

Tarix ta'limining amaliy usuli tarix o'qitish metodikasida hozircha yetarli darajada ishlab chiqilmagan bo'lsada, ilg'or o'qituvchilarga suyanib ish qilish tarix ta'lim amaliy uslubining mavjud imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishga va shu bilan maktabda tarix o'qitishning samaradorligi va sifatini yanada yaxshilashga katta yordam beradi.

O'qitishning amaliy metodlari doirasi juda keng. Ularga: yozma mashq, tajriba-tekshiruv, mehnat topshiriqlarni bajarish metodlari va boshqalar kiradi. Shu metodlar tarkibida dars jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchida bilim ko'nikmalarini shakllantirishda ijobiy natija beradi. Shu nuqtai nazarda qaraganda mazkur bitiruv malakaviy ishimizda biz maktabda tarix o'qitishning

¹ I. A. Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. «O'zbekiston». 2000. 258-bet

ayrim muammoli jihatlarini to'g'risida fikr yuritishga harakat qildik. Albatta, o'qitishning uslub hamda metodlari ko'p va turlicha. O'qitish uslublari o'qituvchining ish usullaridangina iborat bo'lmay, balki bu usullar o'quvchining ish uslublarini ham o'z ichiga oladi. Nazarimizda dars jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish, yuqori sinf o'quvchilarining yoshi, bilimi, fikrlash va ijodiy qobiliyatlari bu murakkab usullardan muvaffaqiyatli foydalanishga imkon beradi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirar ekanmiz, Avstraliya va Okeaniya xalqlari tarixi va etnografiyasini o'rganish, bu avvalambor shu davr tarixi, mamlakatlar xalqlari o'rtasidagi ta'sir munosabatlar doirasini, etnik tarixini xolisona o'rganishni talab qiladi. Istiqlol yillaridan keyingi yillarida bosilib chiqqan yangi etnografik adabiyotlarni xolisona tahlil qilar ekanmiz, unda Avstraliya va Okeaniya xalqlari tarixining shu davrdagi tarixi atroflicha yoritilmaganiga guvoh bo'lamiz. Sobiq sovet davridagi yozilgan tarixiy kitoblaridan o'zlashtirilgan fikrlar endi bizni adashtira olmaydi. Binobarin, bugunda tarixni yangicha milliy istiqlol nuqtai-nazarda o'rganish davr talabiga aylandi. Binobarin shu zamonaviy etnografik adabiyot va manbalardan foydalanib, o'quvchi yoshlarga yangi mazmun, milliy g'oyamiz asosida dars tashkil qilish, ularning bilimni yanada boyitish zaruriyat ekanligiga amin bo'lamiz. Shu nuqtai nazardan quyida keltirilayotgan bir soatlik savol – javob va jadvallar ususi asosida o'tkazilayotgan darsimiz yuqoridagi fikrlarimizni yanada to'ldiradi va boyitadi deb o'ylaymiz.

Mavzu: Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish.

Darsning maqsadi: O'quvchilarda Avstraliya va Okeaniya xalqlari etnografiyasi haqida tushunchalar hosil qilish. Yoshlarni mamlakat hayotida faollik ko'rsatish ruhida tarbiyalash.

Egallanishi lozim ko'nikma va malakalar:

- ✓ Avstraliya va Okeaniya xalqlari tarixi;
- ✓ Avstraliya va Okeaniya xalqlari tillari ;

- ✓ Avstraliya va Okeaniya xalqlari urf-odatları, diniy e`tiqodları;
- ✓ Etnografik bilimlar asosida tarixiy voqealar, jarayonlar qaysi xalqlarga oid ekanligini belgilashi;
- ✓ O`rganilgan etnografik ma`lumotlarni tarixga oid bilimlarni tatbiq etib, tarixiy dalillarni muayyan tartibda tahlil qilish va umumlashtirish, qiyoslash, baho berish, tushuntira olishi;
- ✓ Mahalliy udumlarni aniq tarixiy sharoitlardan kelib chiqqan holda sabab va oqibatlarini bilish;
- ✓ Avstraliya va Okeaniya xalqlari ijtimoiy tuzumlari, ularning atalishi va ularga xos xususiyatlar haqida tasavvurga ega bo`lish;
- ✓ Mavzuga oid xarita, ko`rgazmali qurollar bilan mustaqil ishlay olish, tarixiy etnografik manbalar yuzasidan mustaqil mulohaza yurita olish, bayon qila olish, munozaga va bahslarda faol ishtirok eta olishi lozim.
- ✓ Atamalar mazmun mohiyati haqida tushuncha hosil qilish.

Asosiy tushunchalar va atamalar:

- **kata** (aka)
- **itia** (uka),
- **mayya** (ona)
- **aranga** (bobo)
- **kata** (ota)
- **maori** (mahalliy tub aholi rasmiy tili)

Dars jihozlari:

- Darslik;
- Vatman, marker, skotch;
- Dunyo siyosiy xaritasi;
- Kodoskop va multimediya;
- Ko`rgazmali qurollar.

Tarqatma materiallar:

- Asosiy tushunchalar yozilgan kartochkalar.

Tashqi qism:

- O`qituvchi o`quvchilarni darsning mazmuni va dars davomida egallanishi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar bilan tanishtiradi.
- Darsning borish qismida o`quvchilarni guruhlariga bo`lish.

Dars rejasi:

1. Avstraliya va Okeaniyaning aholisi, etnik tarixi.
2. Avstraliya va Okeaniyalarning an`anaviy xo`jaligi, hayot tarzi.
3. Melaneziyaning ijtimoiy tuzumi, madaniyati.

Darsning borishi:


I. O`tgan darsni so`rash.

Savol – javob:

1. Afrikada o`rta asrlarda yashagan xalqlar va qabilalarni sanab o`ting ?
2. Afrika aholisining xo`jaligi qanday rivojlangan?
3. Gana, Mali va Songai tarixidan nimalarni eslab qoldingiz?
4. Siznigcha, Aksum va boshqa Afrika davlatlari taraqqiyoti orasida farq bormi?

II. Yangi mavzu bayoni

O`quvchilar tomonidan quyidagi ko`rgazmali qurollarni mazmunini mustaqil holda bayon qilish so`raladi:




Avstraliyaliklar nayzalari;

1-2 G`arbiy Avstraliyaliklar

3 Shimoliy hudud

4-5 Qaysi hududligi noma`lum

1 2 3 4 5



1. Shimoliy -G`arbiy Avstraliya


2. Sandey oroli

4-5. Markaziy Avstraliya

6-7. Qaytadigan bumerang Markaziy Avstraliya

8. Xochga o`xshash bumerang

9-10. Bumerangga o`xshash nayzalar




Nayzani uloqtirish



1. Aranda qabilasidan bo`lgan avstraliyalik

2. Kurnai qabilasidan bo`lgan avstraliyalik




**Avstraliyaliklar totem udumlaridan
lavha**



va


**Papua qabilasidan bo`lgan papuas
pigmeylar
(Melaneziyaliklar Gertsok , York va
Solomon orollarida)**



**Bolaga olov yoqish usulini
o`rgatish**




Yangi Gvineyadagi yer o`chog`i




Taqinchoqlar:

1. **Burun taqinchog'i**
2. **It tishidan yasalgan bo'yin taqinchog'i**
3. **Bambukdan yasalgan taroq**
4. **Jangovor ko'krak taqinchog'i**
5. **Bilaguzuk**
6. **Chig'anoqdan yasalgan bilaguzuk**



**Solomon orollaridagi
kelinga "sovg'a"
qilinadigan pullar**



**1.Kukuxiva orolining
tatuировka qilingan
kishisi**

**2.Tosh bolta. (Markiz
orollari)**

Yuqoridagi ko'rgazmali rasmlar orqali o'quvchilar o'z fikrini bayon qilar ekan, ularda ijodiy fikr shakllanib borayotganiga amin bo'lamiz. Yuritilgan mulohazalarga xulosa qiladigan bo'lsak-maktabda 7- sinf jahon tarixi fani bo'yicha tarix o'qitishda **mustaqil darlar tashkil qilish** va shu yo'l bilan o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini shakllantirish ijobiy natija beradi. Zero, o'qitishning metod va usullarini samaradorligini oshirib borish, darsni to'g'ri tashkil qilishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, ushbu metodning o'qitishda, qolaversa bilim olishning qanchalik muhim ahamiyatga molik ekanligini bilish maqsadga muvofiqdir.

Darsni mustahkamlash va yakunlash: **Savollar:**

1. Avsraliya aholisini kiyimlari va hayot tarzi haqida fikringiz?
2. Avsraliya xalqlarining nikoh va qarindoshlik munosabatlari haqida nimadalarni bilib oldingiz
3. Okeaniya xalqlarini mustamlaka qilinishi tarixi haqida so'zlab bering ?
4. Okeaniya xalqlarining musiqa va tasviriy san'ati to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Melaneziya xalqlarining xalq og'zaki ijodi haqida nimalarni bilasiz?
6. Melaneziya xalqlari an'anaviy xo'jaligi nimaga asoslangan edi ?
7. Melaneziya xalqlari diniy tasavvurlari va dafn tartiblari haqida sizning firringiz?
8. Nima o'rgandingiz, qanday o'rgandingiz ?

Iqtidorli o'quvchilar uchun qo'shimcha savollar:

1. Hozirgi kunda O'zbekiston– Avstraliya va Okeaniyaning davlatlari o'rtasidagi munosabatlar qanday ?
2. Avstraliyaning hozirgi kundagi joylashuvini (Avstraliya, Okeaniya, Melaneziya, Poleneziya, Mikroneziya) xaritadan aniqlang.
3. Hozirgi kunda Avstraliya va Okeaniyaning iqtisodiy ahvoli qay darajada ?

Uy vazifasi:

1. Avstraliya xalqlarining xalq og'zaki ijodi mavzusini o'qish.
2. Xaritadan Avstraliya va Okeaniyaning hududlarini belgilash.

Xulosa

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, qit`ada XIX asrning 60 - yillarida Buyuk Britaniyaning 6 ta kolloniyasi: Yangi Janubiy Uel`s (1778), Tasmaniya (1825), G`arbiy Avstraliya (1829), Janubiy Avstraliya (1836), Viktoriya (1851) va Kvislendlar (1859) tashkil topib bo`ladi. Avstraliyaga ko`chib keluvchilar soni 1851 yili yangi Janubiy Uels va Viktoriyada oltin konlarining ochilishi bilan keskin ko`payib, 1861 yilga kelganda 1 mln. 200 ming kishini tashkil qiladi. Temir yo`llar qurilishi ham shu yillari boshlanib, dastlab 1864 yili Melburun va Gabsonbey (Viktoriya) oralig`ida bunyod etilgan. Bugunda Avsraliyan tashqi dunyo bilan suv va havo yo`llari bog`lab turadi.

Angliya parlamenti 1900 yili Avstraliya koloniyalarini birlashtirish haqida qonun qabul qiladi. Avstraliya ittifoqini tuzilgani 1901 yilning 1 yanvarida rasmiy e`lon qilinadi. Shu davrdan boshlab, bu hududda yashovchilar erkin ravishda o`z mustaqilligiga ega bo`ldilar. Albatta yuqorida biz Avstraliya xalqlarining qadimiy udumlari, madaniyati, xo`jaligi, turmush tarsi bilan tanishdik. Bu xalqlarning madaniyati jahon sivilizatsiya taraqqiyotining bir bo`lagi ekanligiga amin bo`ldik. Xalqlar etnografiyasining o`zgarib borishi esa, dunyo mamlakatlari o`rtasidagi aloqalarda namoyon bo`lganligi yaqqol tasdiqlandi. Bu o`zaro bu hududni mustamlaka qilish, qochoq maxbuslarning hududda qolib ketganligi, o`z madaniyatini targ`ib etganligi - bularning hammasi o`z ta`sirini o`tkazgan, albatta. Lekin mazkur xalqlar o`z qadriyatlarini saqlab qolgan, rivojlantirgan va keyingi avlodlar ham bu qadriyatlarni davom ettirmoqda.

Ayni paytda Avstraliya xalqlari oddiy bo`lsada, tabiat bilan kurasha olish qobiliyatini namoyish etadigan o`ziga xos tibbiyot bilimining rivojlanishini ta`minladilar. Xo`jalikni rivojlantirishda ayniqsa, okean tubidagi mahsulotlarni o`zlashtirishda boy tajribaga ega bo`lganlar. Hozida ularning tajribasidan keng foydalanish boshlangan.

Shunisi diqqatga sazavorki, mazkur xalqlarning urf-odatlar Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyatlariga juda o'xshab ketadi. Madaniy yaqinlik, o'xshashlik seziladi. Ba'zi bir xalq udumlari, "kelinni olib qochish", "mehmon kutish" kabi urf-odatlar aynan bizdagi kabi o'xshashdir. Lekin ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida harakatlarga endi erishilmoqda. Aholining hammasi savodli emas. Geografik bilimlari ko'pincha o'z orollari hududi bilish bilan chegaralangan.

Bugungi kunda Avstraliya eng qoloq hududdan rivojlangan davlatlar qatoriga o'tdi. Mamlakatda eng muhim soha qo'ychilikning go'sht - jun yo'nalishi va qoramolchilik, baliqchilik sanoati bilan butun dunyoni ta'minlamoqda. Mamlakatda oltin zahiralari kamayib ketishi bilan qo'ychilik, bug'doy etishtirish keskin ko'paydi. Avstraliya ayniqsa, havo yo'llari orqali oziq - ovqat va engil sanoati mahsulotlari bilan butun dunyoni ta'minlamoqda. Bugunda Avstraliyani industrial agrar mamlakat deb atash to'g'ri bo'ladi.

Avstraliya xalqlarini tarixini o'rganar ekanmiz, er yuzidagi eng qoloq hudud aholisini XX asr davomida iqtisodiyotga erishgan yutuqlarini o'rganib, hayratda qolamiz. Buning zahirida mustaqillik erishganlik yotganiga amin bo'lamiz. Ayniqsa, bu narsa bizni respublikamizning porloq kelajagiga bo'lgan ishonchimizni yanada mustahkamlaydi.

Bugunda O'zbekiston davlati ham goloballashuv jarayonida bu davlat bilan hamkorlik qilmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqiyosida boshqa mintaq va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib borayaptiki, biron-bir mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas"¹ Mana shunday sharoitda, bu mamlakat xalqlari tarixini o'rganish, ular tarixiy tajribasidan istiqloq yo'lida foydalanish, hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat– engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008, 111-112 betlar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. Tarixiy xotirsiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr tlabi.- T.: O'zbekiston. 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: O'zbekiston.1999.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: O'zbekiston. 2000.
5. Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat– engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: TDPU. 2003.
7. Akademik litseylarning ijtimoiy-gumanitar fanlar va xorijiy filiologiya yo'nalishidagi tarmoq ta'lim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o'quv dasturlari. – T.: 2005.
8. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tomoyillar. -T. “O'zbekiston”, 2000.
9. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: “O'qituvchi”, 2004.
- 10.Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. -T.: “O'qituvchi”. 2000.
- 11.Jo'rayev I, Lafasov M, Normatov K. 5-sinf «Jahon tarixidan hikoyalar» - T. 2000.
12. Muhammadjonov A. 7-sinf O'zbekiston tarixi. - T. “O'qituvchi, 2000.”
13. Salimov T., Mahkamov S. 7-sinf Jahon tarixi. - T. «SHarq», 1999.
14. M.Lafasov. 7-sinf Japon tarixi darsligi. - T.: “CHo'lpon”, 2005.
15. M.Lafasov. 9-sinf Japon tarixi o'quv qo'llanmasi. - T.: “A.Qodiriy nomidagi merosi”, -T.: 1999.
16. Jo'rayev U. 7-sinf Jahon tarixidan o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. -T.: 2000.
17. Австралия и Океания. История, эканомика, этнография. М, «Наука». 1978.
18. Бутинов Н. А. Папуасы Новой Гвинеи. М. «Наука». 1968.
19. Jabborov I. M. Jahon xalqlari etnogafiyasi. T. “O`qituvchi”, 1985.

20. Мирослав Стингл. Таинственная Полинезия. М. «Наука». 1991.
21. Пучков П. И. Этническая развитие Австралии М. «Наука». 1987.
22. Пучков П. И. Население Океании. М. «Наука». 1967.
23. Миклухо – Маклай Н.Н. Собрание сочинений . 3-т. 1991.
24. Роуз Ф. Аборигены Австралии. М. «Наука». 1981.
25. Малаховский К.В. Соломоновы острова. М. «Наука». 1981.
26. Народы Австралии и Океании. Под. ред. С.А. Токарева. М. Изд. Академии наук. 1996.
27. Tur Heyerdal. Kon Tikida sayohat.Toshkent. 1974.
28. Тур Хейердал. Деревний человек и океан. М. Мысль. 1982.
29. Основы этнографии. Под. ред. С.А. Токарева. Учебник. М. Мысль. 1992.
30. Salimov T.U. Avstraliya va Okeaniya xalqlari. (O`quv-uslubiy qo`llanma). T. O`z. MU. 2003

Davlat attestasiya komissiyasining raisi

I. Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti kunduzgi bo'lim__4__kurs “_A_” guruh talabasi Ibragimov Muzrobjon Furqatovichning “Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda noan'anaviy dars usulidan foydalanish” nomli bitiruv malakaviy ishi himoya qilishga yuboriladi.

Reyting qaydnomasidan ko'chirma, bitiruv malakaviy ishi rahbarining xulosasi, kafedraning ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, taqrizlar ilova qilinadi.

Fakultet dekani:

dots. Qarshiyev R.

II. Navoiy davlat pedagogika instituti

4 – kurs “A” guruhi talabasi Ibragimov Muzrobjon Furqatovichning “Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda noan'anaviy dars usulidan foydalanish” nomli bitiruv malakaviy ishi kafedraga yig'ilishda muhokama qilingan va Davlat attestasiya komissiyasida himoyaga tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri:

t.f.n. dots R. Rajabov

III. Navoiy davlat pedagogika instituti
«Umumiy tarix» kafedrasining 2013 yil ____ maydagi
№ 13 - majlis qaroridan

Ko'chirma

Qatnashdilar: Kafedraning barcha a'zolari (12 kishi)

Kun tartibida

Bitiruvchi talabalarning bitiruv malakaviy ishi muhokamasi

Eshitildi:

So'zga kafedra mudiri dots.R.Rajabov chiqib, tarix fani bo'yicha tayyorlagan bitiruv malakaviy ishi talabga muvofiq tayyorlanganligi, ilmiy rahbarlar va maktab o'qituvchilaridan taqrizlar ijobiyligini, kerakli hujjatlar rasmiylashtirilganligini ta'kidlab o'tdi.

Bitiruv ishi mavzusi bo'yicha t.f.d G`.Temirov, kat.o'q. F.I.Shirnova o'z fikr - mulohazalarini bildirdilar. Shundan so'ng bitiruvchi Ibragimov Muzrobjon Furqatovichning o'z mavzusi bo'yicha bitiruv ishining dolzarbligi, maqsadini, vazifalari va qilingan ishlardan olingan natijalar bo'yicha xulosa va tavsiyalari haqida so'zlab berdi. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi yuzasidan berilgan savollarga javob berdi.

Majlis qaror qiladi:

Bitiruvchi talabasi Ibragimov Muzrobjon Furqatovichning “Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda noan'anaviy dars usulidan foydalanish” mavzusi bo'yicha:

1. bitiruv malakaviy ishi tugallangan ish deb hisoblansin.
2. bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

dots R. Rajabov

IV. Navoiy davlat pedagogika instituti

*«Umumiy tarix» kafedrasining 2012 yil 26 - sentyabr
№ 1 sonli qaroridan*

KO`CHIRMA

Qatnashdilar: kafedraning barcha a'zolari (12 kishi)

Kun tartibi:

2011-2012 o'quv yilida Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti kunduzgi bo'limining talabasi Ibragimov Muzrobjon Furqatovichning bitiruv malakaviy ishi mavzusini tasdiqlash to'g'risida.

Eshitildi:

Kafedra mudiri dots R. Rajabov so'zga chiqib kafedra a'zolarini bitiruv malakaviy ishi mavzusi bilan tanishtirdi va mavzuning dolzarbligi, bugungi kundagi ahamiyatini hisobga olib Ibragimov Muzrobjon Furqatovichning “Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda noan'anaviy dars usulidan foydalanish” nomli bitiruv malakaviy ishi mavzusini tasdiqlash uchun tavsiya qildi. Yig'ilishda dots.S.G'iyosov, f.f.n. Z.Hayitov mavzuning mazmun mohiyati haqida o'z fikr – mulohazalarini bildirdilar.

Majlis qaror qiladi:

1. Tarix fakulteti bitiruvchisi Ibragimov Muzrobjon Furqatovichning “Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o'rganishda noan'anaviy dars usulidan foydalanish” nomli malakaviy bitiruv ishining mavzusi tasdiqlansin.
2. Ilmiy rahbar etib dots. R.N. Tolibov tayinlansin

Kafedra mudiri:

dots. R. Rajabov

Kabinet mudiri:

I.Navro'zov

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAHOLASH MEZONI

Tarix fakulteti

(fakultet nomi)

Tarix. Jahon tarixi.

(fanning nomi)

Ibragimov Muzrobjon Furqatovich

(Talabaning ismi, sharifi)

HIMOYA VAQTI _____

<i>Mavzuning dolzarbligi</i>	<i>Bajarilgan ishning mustaqillik darajasi</i>	<i>Amaliy ahamiyati</i>	<i>Adabiyotlardan foydalanish darajasi</i>

<i>Ishning rasmiylashtirilishi</i>	<i>BMI himoyasi</i>	<i>Umumiy ball</i>	<i>%</i>

DAK raisi: _____

DAK a'zolari: _____

3. NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tarix fakulteti

Umumiy tarix kafedrası

«T A S D I Q L A Y M A N»

Kafedra mudiri dots.

R.Rajabov _____

«___» _____ 20 -yil

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba

1. Bitiruv malakaviy ishining
mavzusi _____

_____, 20__-yil kafedraning _____ sonli majlisida
ma`qullangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish muddati

3. Bitiruv malakaviy ishining topshirish muddati «___» _____
20__-yil

4. Bitiruv ishning bajarilishiga doir boshlang`ich ma`lumotlar:

A. Mavzu yuzasidan materiallar to`plash

B. Dastlabki olingan materiallarni ishlab chiqish

V. Adabiyotlar majmuasini tuzish

G. Tadqiqot bosqichlari xulosa va takliflar

5. Malakaviy bitiruv ishi bo`yicha o`tkazilish lozim bo`lgan
tadqiqotlar

4. Bitiruv ishi bo'yicha mavzu mundariyasi va maslahatchi o'qituvchilar

Nº	Mundarija	Maslahatchi o'qituvchi	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				
13				
14				
15				

5. Bitiruv ishining bajarish rejasi.

Nº	Bitiruv ishining bosqichlarining nomi	Bajarish muddati	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi	
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				

Bitiruv malakaviy ishi rahbari _____
 Topshiriqni bajarishga oldim _____
 Topshiriq berilgan sana «_____» _____ 2013-yil

«Tasdiqlayman»
«Umumiy tarix» kaf. mud.
dots. R.Rajabov
«29» avgust 2012 y

Tarix yo`nalishi 4 «\_\_» guruh talabasi Ibragimov Muzrobjon Furqatovichning “Avstraliya va Okeaniya xalqlari mavzusini o`rganishda noan`anaviy dars usulidan foydalanish” nomli bitiruv – malakaviy ishi yuzasidan topshiriq.

№	Topshiriqning mazmuni	Bajarilish muddati	Mas'ul	Izoh
1	Mavzusining taxminiy rejasini tuzish	2.09.2012 15.09. 2012	dots.R.N.Tolibov	
2	Tanlangan mavzu yuzasidan chop etilgan asosiy adabiyotlarni o`rganish	15.09. 2012 25.09. 2012	dots.R.N.Tolibov	
3	Har bir rejaga oid materiallarni turkumlash	26.09. 2012 28.10. 2012	dots.R.N.Tolibov	
4	Bitiruv malakaviy ishning kirish qismi va birinchi rejasini yozish	29.10. 2012 30.12. 2012	dots.R.N.Tolibov	
5	Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi rejasini yozib tugallash	2.01. 2013 15.02. 2013	dots.R.N.Tolibov	
6	Bitiruv malakaviy ishning uchinchi rejasini yozish	16.02. 2013 10.03. 2013	dots.R.N.Tolibov	
7	Bitiruv ishining xulosasini tayyorlash va birinchi variantini ilmiy rahbar hukmiga havola etish	11.03. 2013 2.04. 2013	dots.R.N.Tolibov	
8	Bitiruv malakaviy ishning yakuniy variantini tayyorlab kafedra himoya oldi muhokamasiga tavsiya etish	3.04. 2013 1.05. 2013	dots.R.N.Tolibov	

Ilmiy rahbar:

dots. R. N. Tolibov

Bitiruvchi talaba:

Ibragimov Muzrobjon Furqatovich